

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” FAKULTETI

«Bitiruv malakaviy ishi  
himoyaga tavsiya etildi»  
“Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrası  
mudiri, i.f.n., dots. S.Xudoyqulov

---

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 y.

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

MAVZU: “JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN  
DAROMAD SOLIG‘INI HISOBLASH VA BYUDJETGA UNDIRISH  
TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI”

BAJARDI: “Buxgalteriya hisobi va audit”  
fakulteti «Soliqlar va soliqqa tortish»  
yo‘nalishi 4-kurs talabasi Qiyamov  
Mirzohid Nusratovich \_\_\_\_\_

ILMIY RAHBAR: Abdusattorova D.B.  
\_\_\_\_\_

**TOSHKENT – 2014**

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>1-BOB. JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b>	
1.1. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning zarurligi va iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati .....	7
1.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi va shakllanish manbalari.....	14
1.3. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xorijiy davlatlar tajribasi.....	18
<b>2-BOB. IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG`I MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI</b>	
2.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini to'lovchilar, soliqqa tortish obyekti, soliqni hisobalash va budjetga undirish mexanizmi.....	28
2.2. Jismoniy shaxslar jami yillik daromadlarini deklaratsiyalash tizimining amaldagi holati tahlili.....	36
2.3. Elektron soliq deklaratsiyalari dasturiy mahsuli bilan ishlash va deklaratsiyani elektron tarzda taqdim etish tartibi.....	46
<b>3-BOB. IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA JISMONIY SHAXSLARLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG`INI HISOBLASH VA BUDJETGA UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
3.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari .....	52
3.2. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalashning kontseptual asoslarini takomillashtirish.....	57
Xulosa va takliflar.....	63
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	66

## **Kirish**

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar davlat budjetini daromad bilan ta'minlovchi asosiy manba hisoblanib, ularning shakllanishida soliq to'lovchilar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning o'rni beqiyosdir. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida davlat budjetiga kelib tushushini ta'minlash maqsadida anchagina ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish mexanizmi, soliqlarni hisoblash va budjetga undirish, soliq imtiyozlarini qo'llashtartiblari doimiy ravishda o'ziga xosligi bilan soliq munosabatlarida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmining amaldagi holati va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning dolzarb masalalarini o'zida aks ettirgan tadqiqot mavzusi sifatida tanlangan mazkur mavzu o'zining dolzarbligi bilan boshqa mavzulardan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida Prezident Islom Karimov yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish va makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya darajasining pasayishi, aholini ish bilan bandligi darajasini oshayotganligini e'tirof etib xususan, "2013 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi"<sup>1</sup> deya ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda aholi real daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tartibi takomillashtirildi va ularga nisbatan soliq yuki ham sezilarli darajada pasaytirildi. Agar mustaqillikning birinchi yillarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. 2014 йилда юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. Халқ сўзи, 2014 йил 18 январь.

solig'ining eng yuqori ko'rsatkichi 60 foizni tashkil etgan etti bosqichli shkala bo'yicha hisoblanib olingan bo'lsa, bugungi kunda esa uch bosqichli shkala bo'yicha olinib, uning eng yuqori darajasi 22 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish sharoitida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budjeti daromadlari va soliq tizimida muhim ahamiyat kasb etuvchi manba hisoblanadi. Shunday ekan soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va budjetga undirish mexanizmi, daromadlarni deklaratsiyalash tartibi va soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha talaygina muammolar mavjud. Shuni inobatga olgan holda mazkur mavzuda keltirilgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmini takomillashtirish bo'yicha berilgan tavsiya va takliflar soliq tizimini takomillashtirish va soliq siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy moxiyati, ahamiyati, soliqlarni hisoblash va budjetga undirish mexanizmi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni taniqli iqtisodchi olimlar A.Smit, D.Rikardo, J.Sismondi, J.Keyns, S.Bryu, A.Brizgalina, A.Laffer, K.Makkanel, V.Pushkaryova, V.Radionova, M.Romanovskiy, D.G.Chernik, T.Yutkina va boshqalar o'z asarlarida keng o'rganganlar.

Bitiruv malakaviy ishida iqtisodiy islohotlar sharoitida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi masalalar hamda xorijiy mamlakatlar soliqqa tortish uslubiyotlarining ayrim jihatlarini o'rganishda A.Vahobov, E.Gadoev, T.Malikov, O.Olimjonov, Q.Abdurahmonov, Q.Yaxyoev, N.Haydarov, A.Jo'raev, Q.Bozorov, M.Almardonov, B.Toshmurodova, A.Adizov kabi iqtisodchi-olimlarning ishlari ham muhim metodologik manba vazifasini bajardi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va rivojlangan xorijiy davlatlar soliq tizimida jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning ilg'or tajribalarini o'rganish asosida soliq tizimini hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda tavsiya va takliflar berishdan iborat.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun tadqiqot ishining oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- olib borilayotgan soliq siyosati va soliq tizimining hozirgi holatidan kelib chiqqan holda, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda jismoniy shaxslardan olinadigan daromadi solig'i mexanizmi iqtisodiy mazmunini ochib berish;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini o'rganish;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash, budjetga undirish, daromadlarni deklaratsiyalash tartibi va soliq imtiyozlarini taqdim etishning amaldagi holati tahlil qilish;
- xorijiy davlatlar soliqqa tortish tizimlarini o'rganish va ulardan olingan ilg'or tajribalardan milliy soliq tizimida foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining obykti va predmeti. Bugungi kundagi iqtisodiy islohotlar sharoitida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi salmog'i, soliq stavkalari, soliqni hisoblash va budjetga undirish mexanizmining hozirgi holati tadqiqot ishining obykti hisoblanadi.

Davlat budjeti bilan jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi majburiy pul munosabatlari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiyoti va uslubiy asoslari. Mamlakatimizda yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish sharoitida aholi yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilashga xizmat kiladigan umummetodologik tamoyillar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda soliq tizimini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy manbalar olingan.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq Kodeksi, Byudjet Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident asarlari, Prezident Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga doir xorijiy hamda respublikamiz iqtisodchi

olimlari tomonidan yaratilgan nazariy, amaliy, ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy yangiligi va ahamiyati. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmini kompleks tahlil qilish natijasida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish, shuningdek iqtisodiy islohotlar sharoitida soliq munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini belgilab beruvchi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmining amaldagi holati va davlat budjeti daromadlaridagi salmohi hamda soliq tizimidagi ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib, bugungi kunda olib borilayotgan soliq siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ijobiy natijalarni mamlakatimiz soliq tizimiga tadbiq etishdan iborat.

Tadqiqot ishining tuzilish tarkibi. Mazkur ish kirish qismi, 8 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# **1-BOB. JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning zarurligi va iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati**

Amaliyotda va ilmiy izlanishlarda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Shu sababli ushbu kategoriyadan har bir davlat o'ziga xos tarzda va turlicha shaklda foydalanadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti muammolariga bag'ishlangan har qanday xorijiy ilmiy tadqiqotlarda soliq muammolariga ma'lum darajada to'xtalib o'tilgan. Soliq tizimining tuzilishi va faoliyat ko'rsatishi masalalari iqtisodiyotda moliyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Soliqlar to'g'risidagi qarashlar tarixan obyektiv va sub'ektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta'riflarni tahlil qilish ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotlar jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo'lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida aholidan olinadigan daromad solig'ining tutgan o'rnini aniqlash uchun zarurdir. Chunki, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo'lib hisoblanib kelingan. Davlat tuzilish shakllarini rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi o'zgargan va takomillashtirilib borilgan. Soliq tizimining o'zgarishi va takomillashuvi soliqlarning turlari, miqdorlari va yig'ib olish usullari xilma-xil bo'lganligi bilan asoslanib kelingan. Masalan, sharq mamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliq aholidan shaxsiy mol-mulk, er osti boyliklari, erdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun «zakot» sifatida olingan.

Davlatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan o'rnatiladigan soliqlar va to'lovlar, soliq kategoriyasi namoyon bo'lishining aniq shakli bo'lib hisoblanadi. Tashkiliy-huquqiy tomondan soliqlarni, qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va belgilangan muddatda budjet fondiga tushuvchi majburiy to'lov sifatida talqin etish mumkin.

Klassik iqtisodchi olim D. Rikardoning ta'kidlashicha: «Soliqlar- hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan er mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi»<sup>2</sup>.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, D.Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirgan.

Professor D.G.Chernikning fikricha «Soliqlar-davlat tomonidan xo'jalik sub'ektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi»<sup>3</sup>.

Professor B.G.Boldirev rahbarligida yozilgan «Finansi kapitalizma» o'quv qo'llanmasida soliqlarga qo'yidagicha ta'rif berilgan: «Soliqlar-davlat tomonidan undirib olinadigan jismoniy shaxslarning majburiy to'lovlari»<sup>4</sup>. Haqiqatdan ham, yuqorida keltirilgan ta'riflar eng sodda va keng omma uchun qulay va tushunarli bo'lishi mumkin. Lekin bu ta'riflar o'zida soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini to'laligicha aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, ushbu to'lovlar nima maqsadda undirib olinishi hamda qachon undirib olinishi to'grisida etarli ma'lumotlar bera olmaydi.

Iqtisodchi A.Trivus esa - «Soliqlar - soliq to'lovchidan moddiy boyliklarning bir qismini unga yarasha ekvivalent qaytarmasdan olib qo'yishdir. Albatta, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ba'zi xizmatlarni ekvivalent qatoriga qo'shsa bo'ladi» degan<sup>5</sup>.

A.Sokolov esa soliqlar to'g'risida qo'yidagicha ta'rifni keltirgan - «Soliqlar deganda, davlat tomonidan ma'lum iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yoki xarajatlarni qoplash uchun, jismoniy shaxslar va xo'jaliklardan majburiy ravishda olib qo'yiladigan va ekvivalenti qaytarilmaydigan to'lovlar tushuniladi».

---

<sup>2</sup> Д.Рикардо. Сочинения I том. «Начало политической экономии и налогового обложения». Перевод с английского - М. Госполитиздат, с.360.

<sup>3</sup> Черник Д.Г. «Налоги в рыночной экономике», «Финансы», М.: 1992, - №3. с.19 с.21.

<sup>4</sup> Болдырев. «Финансы капитализма», «Финансы», М.:1987. с.21.

<sup>5</sup> В. Ю. Галкин. «Некоторые вопросы теории налогов». Журнал «Финансы» № 1, 1993 г. стр.35.



A.Sokolovning ta’rifi, bizning fikrimizcha, soliqlarning mohiyatini anchagina kengroq ochib beradi. Ya’ni shunisi bilanki, bunda soliqlarning nafaqat xazina vositasi, balki iqtisodiy siyosat yurgizishning ham vositasi ekanligi e’tirof etilgan, bu bizningcha juda muhim holatdir.<sup>6</sup>

Soliqlar davlat budjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq, bu ta’rif soliqlarning mohiyatini to’laligicha yoritmaydi hamda soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o’zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar obyekt bo’lib nima hisoblanadi? degan savollarga javob bera olmaydi.

Ta’kidlash lozimki, professor O.Olimjonovning fikriga ko’ra soliqlar qo’yidagicha ta’riflansa, ularning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo’ladi: «Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag’lariga bo’lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo’yilgan hajmda va o’rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to’lovlardir»<sup>7</sup>.

Ijtimoiy-siyosiy yo’nalish vakillari daromad solig’ini soliq yukini nisbatan adolatli taqsimlashning vositasi deb hisoblaganlar. Daromad solig’ini fiskal maqsadlarning manbasi jihatidan qaraydigan moliyachilar esa bu fikrga qo’shilmaydilar.

Moliyachi olimlarning bir qismi daromad solig’ini egri soliqlar tizimiga qo’shimcha va to’ldirish deb hisoblaydilar. Tadqiqotchilarning ko’pchiligi esa daromad solig’iga moliyaviy tizimning asosiy va zaruriy qismi deb qaraganlar. Amerikalik tadqiqotchi E.Seligman, to’g’ri soliqlar tizimining rivojlanishi jarayonini o’rganib, daromad solig’i uning eng so’ngi va takomillashgan shaklidir degan: «Daromad solig’i so’zsiz soliq adolatliligi to’g’risidagi g’oyalarga aniqroq

---

<sup>6</sup>Гатаулин Ш.Қ. «Солиқлар ва солиққа тортиш». Ўқув қўлланмаси. Ўз.Р. ДСҚ Тошкент, 1996. 18 бет.

<sup>7</sup> О.Олимжонов. «Бозор иқтисодиётига ўтиш даврида солиқ сиёсати. Ҳаёт ва иқтисод. 1992 йил, №5.

javob beradi. Shuning uchun yaqin kelajakda to'g'ri soliqlarning barchasi bekor bo'lib, yagona daromad solig'i bilan almashtiriladi, deb o'ylash mumkin»<sup>8</sup>.

Daromad solig'ining ustunliklarini aniqlab, K.Eeberg «o'zining g'oyaviyligi jihatidan umumdaromad solig'i barcha soliqlarni ortda qoldiradi, faqat shu soliq shaxsiy munosabatlarni hisobga oladi va soliq to'lovchini to'lov qobiliyatiga qarab soliqqa tortishga imkon beradi», deb yozgan.<sup>9</sup>

Davlat faoliyat doirasining kengayishi va uning fiskal extiyojlarining tez sur'atlarda o'sishi harakatchan daromad manbasini bera oladigan epchil soliq tizimini tuzish vazifasini oldinga surdi. Daromad solig'ining tuzilishi soliq stavkalarini zarur holatlarda osongina pasaytirish va ko'tarish imkonini beradi. Amal qilgan obyektlardan to'g'ridan-to'g'ri soliq olish tizimi esa yangi fiskal maqsadlar talablariga javob bermas edi.

Aholi daromad solig'ining soliq amaliyotiga kirib kelishidagi ijtimoiy sabablarni ham ko'rsatish lozimdir. Ishchi sinfining talabi ham soliqlarning undirilishida daromad kriteriysini kiritish edi. Daromad solig'iga o'tishning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari rus professori M.N.Sobolev tomonidan anchagina aniqroq va yaxshiroq tariflangandir: «Daromad solig'i moliya tizimida soliqqa tortishning eng takomillashgan shaklini o'z ichiga oladi, chunki u jamiyatning oxir-oqibatda barcha soliqlari to'lanadigan manba—sof daromadni qamrab oladi. Daromad solig'ining og'irligi ushbu soliqni o'zi ixtiyoriy ravishda to'lamaydigan mulkiy sinflariga tushadi. Ularning soliq qarshiliklarini bartaraf etadigan shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak. XIX asrda bunday kuch bo'lib ishchilar sinfi maydonga chiqdi, ular Evropa mamlakatlarining sotsialistik partiyalari dasturlariga iste'mol soliqlarini bekor qilishni va progressiv daromad soliqlarini joriy etishni talab qildilar. Bu holatlar urushlar bilan bog'liq edi: Rossiya va Frantsiyada daromad solig'i, birinchi jahon urushi tufayli yuzaga kelgan og'ir iqtisodiy va

---

<sup>8</sup> Болдырев Г.И. Подоходный налог на западе и в России, Ленинград, 1924, с.13.

<sup>9</sup> Эеберг К.Т. Современные налоги на западе, Петроград, 1923, с.9.

moliyaviy tanglikdan keyin joriy etildi. Daromad solig'ini joriy etishning iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlari ana shulardan iboratdir»<sup>10</sup>.

Shunday qilib, daromad solig'iga o'tilishi iqtisodiy taraqqiyot muammolarini hal qildi, davlat fiskal talablarini qondirish va jamiyatdagi ijtimoiy tanglikni yumshatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq yordamida milliy daromadni taqsimlashda davlatning, shu jumladan, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining pul shaklidagi yangi qiymatning bir qismini o'zlashtirilishi ta'min etiladi. Milliy daromadning majburiy ravishda safarbar qilingan bu qismi davlat moliya resurslarining bir qismiga, uning hayotiy faoliyatining asosiga aylanadi.

Binobarin, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (barcha soliqlar kabi) ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi: ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli (ularning ijtimoiy mazmuni) sifatida maydonga chiqadi va pul shaklidagi milliy daromadning bir qismi (moddiy mazmuni) hisoblanadi. Aholidan olinadigan daromad solig'ining manbai shu aholining iste'mol fondidir yoki taqsimlash jarayonlarini hisobga olganda esa milliy daromadning bir qismidir.

Shunday qilib, aholi daromad solig'ining zaruriyati ijtimoiy manfaatlar ustunligida namoyon bo'lmoqda. Buning ma'nosi shuki, daromad solig'idan foydalanish aholining nominal pul va real daromadlari darajasini muayyan tarzda tartibga solish zarurligi bilan bog'liqdir. U mehnat natijalari bilan unga haq to'lash o'rtasidagi muvofiqlikni o'zgartirmasdan turib aholining pirovard daromadlari miqdorini o'zgartirish imkonini beradi. Daromad solig'i orqali aholining pirovard daromadlarini shakllantirish, ishlab chiqarish va iste'mol xususiyatlarini ta'riflab beradigan turli obyektiv hamda sub'ektiv omillarning ishtirok etishi vositasida amalga oshirilishi mumkin. Bu omillarning xilma-xilligi daromadlarning (shu jumladan ish haqini) boshqa manbalari miqdorini tabaqalashtirish tizimi orqali to'liq hisobga olib bo'lmaydi.

---

<sup>10</sup>Соболев М. Н. Очерки финансовой науки, М. 2004. С. 104-106.

Pirovard daromadlarni shakllantirish omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladigan daromad solig'i tegishli ravishda bu daromadlar tuzilishiga, demak, aholining ehtiyojlari tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i asosan aholining pirovard pul daromadlari darajasiga ta'sir qiladi, shu bilan birga davlat uni olinadigan daromatlardan yanada maksadga muvofiq foydalanish uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida ishga soladi. Daromad solig'i tufayli daromadlarning, avvalo yuqori daromadlarning bir qismi aholining qo'shimcha mablag'larga muhtoj bulgan toifalari foydasiga va umuman jamiyat manfaatlari yo'lida qayta taqsimlash sodir bo'ladi. Daromatlardagi tengsizlik darajasi ma'lum darajada qisqaradi.

Soliq siyosati aholi manfaatlariga xizmat qilmog'i, aholi va davlat o'rtasidagi soliq munosabatlari oqilonaligini ta'minlashi lozim. Davlat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliqqa tortishning makroiqtisodiy vositasi orqali aholining daromadlarini qayta taqsimlashda tartibga soluvchilik va rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarar ekan, iste'mol fondini tabaqalashtirilgan chegaralarga qarab yuzaga chiqayotgan har qanday ijtimoiy muammolarni har tomonlama o'ylab yondoshuvi va aholining daromadlarini turli manfaatlardan kelib chiqqan holda oqilona tartibga solib borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan iqtisodiy munosabatlarning qayta qurish jarayonlari bozorga o'tish asosida xo'jalik yuritishning turli shakllarini avj oldirishga va buning natijasi o'laroq aholining pul daromadlari mehnatga haq to'lash va boshqa daromadlarning o'sishi hisobiga ortishiga yordam bermoqda. Aholining daromadlar bo'yicha iqtisodiy jihatdan muqarrar ravishda tabaqalanishi respublikadagi umumiy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga hamisha ham ijobiy ta'sir ko'rsatavermaydi. Aholi daromadlari – jamiyatning konkret rivojlanish bosqichida institutlar va institutsional o'zaro aloqalarning muvofiqligi va rivojlanishining ma'lum darajasidagi natijasidir. Bunday holatda aholining daromadlari shakllanish mexanizmini quyidagi chizmada tasvirlanganidek tasavvur qilish mumkin.


Aholi daromadlari shakllanishining bunday yondashuvi orqali aholi daromadlarining turli darajalarda bo'lish sabablarini tushuntirish mumkin.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining manbai ham zarur, ham qo'shimcha mahsulot mahsuli bo'lishi mumkin. Davlat, aktsiyadorlik, kooperativ va xususiy korxonalaridagi ishlab chiqarish faoliyatini natijalariga qarab to'lanadigan ish haqidan olinadigan soliq zarur mahsulotning bir qismidir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budjetining xazinasini asosiy manbalaridan bo'lib, u orqali umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan zaruriy chora-tadbirlarni moliyalashtirishga etarlicha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa davlatning jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda namoyon bo'ladigan funktsiyalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning naqadar zarurligidan dalolat beradi.

### 1.1.1-chizma

#### Aholi daromadlarini shakllantirishning institutsional mexanizmi<sup>11</sup>



<sup>11</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Yuqoridagilardan ayon bo'ldiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tizimi budjetning asosiy manbalaridan biri sifatida obyektiv zarur xususiyatga egadir. Ushbu soliqning ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarbligi va ahamiyati oshib boradi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar va ishbilarmonlarning aholi umumiy tarkibidagi salmog'i va ular daromad darajalarining oshib borishi shuni taqozo qiladi va keltirib chiqaradi. Albatta, tadbirkorlar sinfining paydo bo'lib, ular safi tobora kengayib borishi, daromadlarining oshib borishi degani, jismoniy shaxslarning ushbu qatlamidan o'z-o'zidan daromad solig'i tushumi ko'payib qoladi degan gap emas. Bu erda yana bir omil - bozor iqtisodi talablariga javob bera oladigan, jismoniy shaxslarni ishlab topgan daromadlarini manбайдan qat'iy nazar progressiv va adolatli tarzda soliqqa tortilishini ta'minlashi kerak bo'lgan bir omil mavjudki, u soliqqa tortishning mexanizmi bo'lib, o'z ichiga jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda huquqiy va uslubiy asoslarni qamrab oladi.

## **1.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi va shakllanish manbalari**

Jismoniy shaxslar daromadlari deganda, keng ma'noda mamlakat fuqarolari ixtiyoriga kelgan pul tushumi tushuniladi. Mohiyati jihatidan aholi daromadlari jismoniy shaxslarning yalpi milliy mahsulotlardagi hissasi bo'lib, pul shaklida ifoda etiladi. Jismoniy shaxslar daromadlarining o'zini ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchisi - mehnat bilan olingan daromad, unga ish haqi, biznesda bevosita qatnashgan tadbirkor daromadi kiradi; ikkinchisi - mulkdan kelgan daromad, unga foyda, renta, foiz va dividendlar kiradi.

Ish haqi ko'pchilik aholining asosiy daromadi sanaladi. Rivojlangan mamlakatlarda jami daromadlarning 70-80 foizini ish haqi tashkil etadi. Aholining ish haqi shaklidagi mehnat daromadlari bir qator institutsional va noinstitutsonal xarakterdagi omillarga bog'liq. Buni quyidagi chizmada ko'rish mumkin:


Fuqarolar umumiy ish haqidan daromad solig'i, nobudjet fondlarga ajratmalar to'langandan keyin sof ish haqiga ega bo'ladilar. Sof ish haqidan fuqarolar o'z

zimmasidagi asosiy er va mol-mulk soliqlarini to'laydilar. Lekin jismoniy shaxslar nafaqat ushbu soliqlarni balki elektroenergiya, suv, gaz, telefon aloqasi, ya'ni kommunal xizmatlar uchun ham to'lovlarni to'lashlari kerak. Ushbu to'lovlarni soliqlar singari majburiylik xususiyatidan kelib chiqib, fuqarolar zimmasidagi soliq yukiga kiritiladi. Jismoniy shaxslarning soliq yuki aholining turmush darajasiga bevosita ta'sir etadi. Turmush darajasi deganda, insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirilishi me'yori tushuniladi. Soliq yuki fuqarolarga og'ir tushmasligi uchun avvalo daromadlar yuqori bo'lishi kerak.

Aholining ijtimoiy tabaqalanishini e'tiborga olgan holda soliq stavkasi miqdorini tabaqalashtirilganligi soliqqa tortish tamoyillariga mos keladi. Agar rivojlangan xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan soliq stavkasi miqdori bilan tanishadigan bo'lsak, ularda ham soliq stavkasi tabaqalashtirilganligiga guvoh bo'lamiz.

Avvalgi «daromadlarni tenglashtirish va cheklash» davrida mehnatkashlarning daromadlari turli ma'muriy va moliyaviy yo'llar bilan chegaralanib turilardi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, olib borilayotgan iqtisodiyotni isloh qilish va uni erkinlashtirish siyosati doirasida kishilarga erkin tadbirkorlik bilan shug'ullanishlariga keng yo'llar ochilib, daromadlarga cheklanishlar bekor qilingach, yuqori daromadlarga ega fuqarolar soni oshib bormoqda. Bunday hollarda daromad solig'ining roli keskin oshib ketadi, chunki daromad solig'i yordamida katta va kichik daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning daromadlari tabaqalashgan soliq stavkalari yordamida daromad miqdoriga qarab progressiv ravishda soliqqa tortiladilar. Aynan daromad solig'ining amaldagi progressiv shkalasi yordamida vertikal adolat tamoyillari amalga oshadi, ya'ni, ko'p daromadga ega jismoniy shaxslar katta stavkada, kichik daromadga ega jismoniy shaxslar esa kichik stavkalarda daromad solig'iga tortiladilar.

### Mehnat daromadlari darajasini ko'rsatuvchi omillar<sup>12</sup>



Mehnat daromadini davlat tomonidan tartibga solish	Korxonaning moliyaviy ahvoli
Aniq mehnat bozorida korxonahokimiyatining kuchi	Mehnat miqdori
Kasaba uyushmasining hokimlik kuchi	Mehnatning qiyinligi
Xodim va ish beruvchining individual tarzidagi kelishuvi	Mehnat resursining noyobligi
Mehnat bozori institutlarining rivojlanganligi	Mehnat sifati
Korporativ kadrlar siyosati	Mehnat bozori kon'yunkturasi
Oilaviy ko'mak	Mehnatga talabning elastikligi
Ishchilar, ish beruvchilar va davlat o'rtasidagi kommunikatsiyaning samaradorligi	Resurslar almashinuvi
Mehnat sohasidagi noqonuniylikning rivojlanganligi	Tovar va xizmatlar bozori kon'yunkturasi
Mehnat munosabatlaridagi diskriminatsiya	Mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan soliq summalari O'zbekiston Respublikasida soliqni to'lashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi. Hisobga olinadigan summalar

<sup>12</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



miqdori jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan oshmasligi kerak.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblashning o'sib boruvchi tartibda hisoblash mexanizmining joriy etilishi ham ikki va undan ziyod daromad manbaiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning daromadlarini yil yakuni bilan qayta deklaratsiyalash mexanizmini obyektiv zaruriyat qilib qo'ydi.

Shuning uchun ham yilning oxirida ikki va undan ortiq daromad manbaiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan taqdim etiladigan daromadlar haqidagi deklaratsiyalarga muvofiq soliqqa tortish ayni shu shkalaga binoan amalga oshiriladi. Umuman, daromadlarni deklaratsiyalash o'sib boruvchi yakunga ko'ra soliq solish shkalasining afzalligini tasdiqlaydi. Bu narsa har xil mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning bir necha joydan daromad olish hollariga tegishlidir. Tabiiyki, bunday joylarning har birida ham ish haqi to'lanish jarayonida tegishli soliq summalari belgilangan stavkalar bo'yicha ushlab qolinadi. Shunday bo'lsada, barcha jismoniy shaxslar o'z daromadini ko'rsatuvchi deklaratsiyani topshirishda yil davomida olingan hamma daromadni ko'rsatishi kerak bo'ladi. Bunday daromadlar qayd qilib o'tilganidek jamlab chiqiladi va avval to'langan soliqlar summasi chegirib tashlanib, natijada yil davomida jismoniy shaxsning asosiy va asosiy bulmagan boshqa barcha ish joylaridan olgan turli shakldagi ish haqlarining yig'indisidan daromad solig'i qayta hisoblab chiqiladi. Bunda agar biror bir ish haqidagi tegishli miqdordan kam miqdorda soliq hisoblangan bo'lsa, qo'shimcha hisoblangan daromad solig'i budjetga undiriladi.

Soliq to'lovchi tegishli imtiyozlarga loyiq bo'lgan bo'lsa, bunday imtiyozlar faqat asosiy ish joyida hisobga olinadi. Agar muayyan vaqt davomida fuqaroning asosiy ish joyi bo'lmagan va boshqa joylarda ishlab turgan bo'lib, keyinchalik soliq idorasiga deklaratsiya bilan birga maosh olgan ish joylari haqidagi barcha ma'lumotnomalarni va olingan daromadlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etganda, soliq idorasi u maosh olgan boshqa tashkilotlarda e'tiborga olinmagan

imtiyozlarni hisobga olgan holda hisoblab berishadi. Natijada soliq to'lovchiga ortiqcha to'lagan soliq summalari qaytariladi.

Aholi daromadlarini to'g'ri aniqlashda, soliq tushumlarini to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlashda jismoniy shaxslar bilan ishlaydigan davlat soliq inspeksiyalari bo'limlarini ishini to'g'ri tashkil qilinishi katta ahamiyat kasb etadi.


Jismoniy shaxslar bilan ishlovchi bo'limlarda tuman hududi uchastkalarga bo'lingan bo'lib, ularning har birida joylashgan ko'chalar, ko'p qavatli uylar, yakka tartibda qurilgan uy-joylar, shuningdek maktablar, do'konlar, korxonalar, aholiga hizmat ko'rsatish obyektlari haqida aniq ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'ladi. Kim turar joyini ijaraga berayotgani, kim tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgani va shunga o'xshash axborotlar ancha aniq va qat'iy tizimlashtirilgan bo'lishi uchun tumanda joylashgan mahallalarga pasport tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Bunday amaliyot poytaxtimizning ayrim tumanlarida amal qilib kelmoqda va o'z samarasini bermoqda. Mahalla pasportlarida ham infratuzilma obyektlari, xususiy uylar, ko'p qavatli uylar ko'rsatilgan xarita, mahallaning tashkil qilinish tarixi, uning faollari, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, pensionerlarga ko'rsatiladigan yordam haqida qisqacha ma'lumotnoma mavjud. Yana aholi umumiy soni, millati, alohida erkaklar va ayollar soni, oilalar soni, ko'cha bo'yicha rahbar odam, mahalla qo'mitasi, ayollar kengashining faollari haqidagi batafsil ma'lumotlar kiritilgan.

### **1.3. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xorijiy davlatlar tajribasi**

Hozirda ko'plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko'lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda.

Jahonning etakchi mamlakatlari uchun eng og'ir muammo – bu ishsizlikdir. Jahon inqirozi boshlanishi bilan zamonaviy iqtisodiyotda bandlar va ishsizlar

o'rtasidagi yangi nisbatning vujudga kelganligi hamda yuqori darajadagi ishsizlik uning alomatiga aylanganligi to'g'risidagi xulosa barcha uchun ma'lum haqiqatga aylandi. Aslida, bu boradagi ahvol bir xilda emas. Bir tomondan, ishsizlik dastlabki inqiroz holatlaridan keyin juda sekinlik bilan pasaymoqda. Boshqa tomondan, jahonning ko'plab mamlakatlari – bu Germaniya, Yaponiya, Markaziy va Shimoliy Evropa mamlakatlarida ishsizlik darajasi inqirozdan oldingi darajasiga qaytdi. AQShda ishsizlik darajasi juda sekinlik bilan, biroq barqaror ravishda pasayib bormoqda va hozirda 7,7% ga qadar tushdi. Albatta, AQSh iqtisodiyoti uchun “me'yordagi” hisoblangan 4-6% darajaga tushishgacha hali uzoq, biroq eng yuqori 10,1% dan sezilarli darajada farq qiladi (1.3.1-rasm).



### 1.3.1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi.

Ishsizlik jahondagi ko'plab mamlakatlarda yaqin bir necha yillar ichida inqirozdan oldingi holatga qaytishi mumkin. Gap shundaki, mazkur inqiroz jiddiy tarkibiy siljishlar bilan bir vaqtda ro'y bergan bo'lib, uning bartaraf etilishi uchun navbatdagi muhim tarkibiy islohotlar taqozo etiladi. Bu, albatta, ishsizlik darajasining pasayishini sekinlashtiradi. AQSh uchun 3-4%, Evropa Ittifoqi uchun

2,5-3,5% darajasidagi bir necha yillik barqaror o'sish ishsizlikning ahamiyatli darajada pasayishi hamda budjet muammolarining hal etilishini ta'minlaydi<sup>13</sup>.

Credit Suisse banki tomonidan tayyorlangan Global Wealth Report ma'ruzasida jahon aholisi farovonligining jamlanma ko'rsatkichi 2011 yilning o'rtalaridan 2012 yilning o'rtasiga qadar 5,2%, ya'ni 223 trln. doll. miqdorida qisqarganligini ta'kidlaydi. Mazkur ko'rsatkichning bu darajada pasayishi 2007-2008 yillardan buyon birinchi marta qayd etilgan<sup>14</sup>.

Prezidentimiz o'z asarlarida moliyaviy inqiroz holati va uning ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarga doir fikrlarini davom ettirib, navbatdagi xulosani ta'kidlab o'tdilar: «Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi»<sup>15</sup>.

Jahonda moliyaviy inqirozning tarqalishi global iqtisodiy o'sish sur'atlariga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi. Nafaqat moliyaviy sektor, balki iqtisodiyotning real sektorida ishlab chiqarishning pasayishi kuzatildi. 2008 yilning oktyabr oyiga kelib, GM, Ford va Toyota kabi avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar savdo hajmida mos ravishda 45%, 30% va 23% pasayish kuzatilgan.<sup>16</sup> Birgina AQShda 2008 yilning sentyabr oyidan buyon moliyaviy sektorda, 111000 kishi, avtomobil sanoatida 95000 kishi, transport sohasida 62000 kishi, chakana savdoda 51000 kishi va telekommunikatsiya sohasida 28 000 kishi ishsizlar safidan o'rin olgan.<sup>17</sup>

Ta'siri doirasining kengligi bilan butun dunyoni larzaga solayotgan global inqiroz mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'zining ta'sirini o'tkazmasdan

<sup>13</sup>Перспективы развития мировой экономики в 2013 году // <http://www.webeconomy.ru/>

<sup>14</sup> Благосостояние населения мира снизилось за последний год, в России самое неравномерное распределение доходов — Газета. Ru | Финансы // <http://www.gazeta.ru/financial/2012/10/10/4807489.shtml>

<sup>15</sup> Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни баргараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 5-6.

<sup>16</sup> [www.grailresearch.com/Download.aspx\\_DownloadUrl=\\_PDF\\_ContentPodsPdf\\_Global\\_Financial\\_Crisis](http://www.grailresearch.com/Download.aspx_DownloadUrl=_PDF_ContentPodsPdf_Global_Financial_Crisis).

<sup>17</sup>«U.S. layoffs increase as business confront crisis», ИИТ, Oct 26, 2008.

qo'ymaydi. Bunday jarayonlarda mamlakatda to'g'ri tanlangan iqtisodiy siyosat, xususan soliq siyosati o'zining yuqori darajadagi samarasi bilan iqtisodiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz soliq tizimida 2001 yilga qadar ushbu miqdor eng kam ish haqi summasiga tenglashtirilgan holda belgilanib kelindi. 2001 yildan e'tiboran ushbu soliqqa tortilmaydigan miqdor bekor qilindi. Bitiruv malakaviy ishimizda ushbu miqdorning soliq to'lovchilar uchun qay darajada ahamiyatga ega ekanligi hamda uning rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qanday qo'llanilayotganligi to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Yangi ming yillikning birinchi yilidan boshlab Rossiya Federatsiyasida jismoniy shaxslarga daromad solig'i solishning 13 foiz miqdoridagi amalda yagona bo'lgan stavkasi belgilandi va ayrim daromad turlari bo'yichagina, shuningdek 30 foiz miqdoridagi proportsional (mutanosib) stavka qo'llanilmoqda. Rossiyadagi norezidentlar esa Rossiyahududida olingan barcha daromadlardan 35 foizli stavka bo'yicha soliq to'laydilar. Ushbu soliq to'laligicha Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari budjetiga o'tkaziladi. Tushumlari mamlakatning budjet tizimiga emas, balki tegishli davlat budjetdan tashqari ijtimoiy fondlariga kiritib qo'yiladigan yagona ijtimoiy soliq Rossiya soliq tizimida alohida o'rin tutadi. Soliqqa tortiladigan daromaddan chegirmalar; standart chegirmalar 300-3000 rublgacha, ijtimoiy chegirmalar- 38000 rubl har bir ta'lim olayotgan va davolanayotgan farzand uchun, mulkiy chegirmalar- 125000-1000000 rublgacha, kasbiy chegirmalar 20-40% gacha chegiriladi.

Italiyada sarmoyadan olinadigan daromad omonatlar bo'yicha va banklardagi joriy hisobvaraqlar bo'yicha foizlar, dividendlar, lotereya yutuqlari va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Soliq bank yoki boshqa muassasa pul to'layotgan vaqtida, ya'ni manbaning o'zida ushlab qolinadi, hamda soliqqa tortiladigan umumiy daromadga kiritilmaydi. Bankdagi hisob varakalar bo'yicha foizlar 25 foiz, obligatsiyalar bo'yicha 12,5 foiz bonlar va kredit sertifikatlari bo'yicha ham

12,5 foiz, chet el zayomlari bo'yicha 30 foiz, yangi chiqariladigan obligatsiyalar bo'yicha esa 6,25 foizli stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi.

Yollanib ishlaydigan ishlar bo'yicha soliqni hisoblab chiqish yollanib ishlash va erkin kasb bo'yicha ishlashdan keladigan barcha mehnat daromadlarini birlashtiradi. Yollanib ishlaydigan shaxslarning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan keladigan tushumlar manbaidir. Bu daromadlar nafaqat ish xaqi, balki barcha to'lov, kompensatsiya, taqdirlovlar, qo'shimcha to'lanadigan haqlar, shuningdek nafaqadan iborat bo'ladi. Ish xaqi va nafaqadan boshqa daromadmanbalariga ega bo'lmagan shaxslar soliq deklaratsiyasi topshirishdan ozod qilinadi.

Erkin kasbdagi shaxslarning daromadlari to'g'risida qonun xujjatlarida etarlicha yozilgan emas, shu sababli soliqni hisoblab chiqish kator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bunday daromadlarga boshqaruvchilar, hisobotlarni tekshiradigan taftishchilarning ish haqi, muxbirlarning kalam haqlari, taqdirlovlar va shu kabilar kiritiladi.

Tadbirkorlik daromadlari yakka faoliyat bilan shug'ullanadiganaholiga tegishli bo'ladi va sof foydani hisobga oladi. Lekin soliq solishmaqsadlari uchun tadbirkorning shaxsiy daromadi yoki oila daromadiko'rib chiqiladi va hisobga olinadi. Oilaga solinadigan soliqnihisoblab chiqarishda oila har bir a'zosi bajaradigan mehnatiningmiqdori va sifati mutanosibliigi sharti e'tiborga olinadi. Boshqamanbalar toifasiga sotib olingan erni, ko'chmas mulkni sotishdan olinganfoyda, chet eldagi mulkdan kelgan daromad va boshqalar kiradi.

Er, ko'chmas mulk san'at buyumlarini chayqovchilik yo'li bilan sotish va boshqa faoliyatdan olinadigan daromadlar turlariga solinadigan soliqlarni hisoblab chiqishda barcha manbalar hisobidan yuzaga kelgan jami daromad e'tiborga olinadi. Bunda umumiy summadan mahalliy daromad solig'i, ijara haqi, ipoteka krediti bo'yicha to'langan foizlarni to'lash sarf-xarajatlari, davolanish, dafn etish, ta'lim sarf-xarajatlari, alimentlar, sug'urta badallari chegiriladi.

Soliq to'lovchi qonunan ruxsat etilgan chegirishlarni amalga oshiradi, keyin esa soliq solinadigan daromadni aniqlaydi. Soliq stavkalari murakkab progressiya

bo'yicha (shkala bo'yicha) daromad umumiy summasining 23 foizidan 43 foizgacha miqdorda undiriladi. O'zgarishlar har yili inflyatsiya indeksini hisobga olgan holda kiritiladi(1.3.1-jadval).

**1.3.1-jadval**

**Italiyada jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarining  
qo'llanilishi**

<b>Soliqqa tortiladigan daromad</b>	<b>Soliq stavkasi (foiz)</b>
26 ming evrogacha	23
26 ming evrodan 33,5 evrogacha	33
33,5 ming evrodan 100 ming evrogacha	39
100 ming evrodan yuqori	43

Manba: Internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Daromad solig'ini to'lovchining o'zi daromadlar xaqida deklaratsiya to'ldirish yo'li bilan aniqlaydi va deklaratsiyani soliq, organlariga taqdim etadi. Soliq organlari soliq to'lovchining o'zi taqdim etgan hisobot ma'lumotlari asosida jismoniy shaxsning to'lashi lozim bo'lgan soliq summasi yoki qaytarib beriladigan pul miqdorini aniqlaydi.

Soliq solinmaydigan eng kam miqdor o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra standart chegirma deb ataluvchi – AQSh qonunchiligida nazarda tutilgan imtiyozga yaqindir. Standart chegirma soliq solinmaydigan eng kam miqdor bilan baravar ravishda qo'llanib kelinadi. U soliq solinmaydigan eng kam miqdor singari qat'iy qayd etilgan summada, masalan, 5,5 ming dollar (yolg'iz soliq to'lovchilar uchun), 11 ming dollar (er-xotinlar uchun) va 2 ming dollar (bir uy xo'jaligidagi har bir shaxs uchun) ifodalanadi. Masalan, to'rt kishidan iborat bir oila – 8 ming dollar standart chegirmaga ega<sup>18</sup>. AQShdagi imtiyozning muhim farqi shundan iboratki, soliq to'lovchi standart chegirma o'rniga o'z chiqimlarini moddalar bo'yicha hisoblash usulini qo'llash mumkin. Bu xarajatlarni yalpi daromaddan chiqarib

<sup>18</sup>Налого и налогообложение: учеб. /Под ред. И.А. Майбурова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 559 с

tashlashga ruxsat etiladi (tibbiy xizmat va dori-darmon sotib olish xarajatlari; tish do'xtiri xizmatlariga haq to'lash; ipoteka krediti bo'yicha to'lanadigan foizlar va shu kabilar).

Bizda bu xildagi xarajatlar soliqqa tortiladigan daromaddan chiqarib tashlanmaydi. Chunki hozircha, bizning nazarimizda, mamlakatimiz iqtisodiyoti bunday imtiyozli xarajatlarga tayyor emas. Bu aholining daromadlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish yo'lida yangi bosqich bo'lishi mumkin.

Chegirib tashlanadigan eng kam miqdorni ilmiy asoslangan holda belgilash soliq stavkalarining ko'paytirib borilishiga ham asos bo'lishi mumkin. Bunda birinchi navbatdagi vazifa – stavkalarni oshirish va ularni tabaqalashtirish chegaralarini belgilashga muhim yondoshuvlarni ishlab chiqishdan iboratdir. O'zbekistonda boshlang'ich va pirovard stavkalar miqdori hozirgi vaqtda kuzatilayotgani kabi, shak-shubhasiz turlicha bo'lishi tabiiydir.

Dastlabki soliq stavkasidan oshirilgan soliq stavkasiga o'tish, ya'ni ko'payib borishning boshlanishiga o'tish uchun olinadigan daromad soliq solinmaydigan eng kam miqdordan ko'p marta ortiq bo'lishi lozim. Bizning fikrimizcha, soliq stavkasini oshirib borishni soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdordan kamida o'n baravar ortiq bo'lgan daromaddan boshlash kerak. Faqat ana shunday daromadgina kambag'allik chegarasidan ancha uzoqlashish imkonini beradi va shu sababli soliq stavkasini birmuncha oshirish mumkin bo'ladi.

Eng murakkab masala – soliqning eng kam va eng yuqori stavkalar to'g'risidagi masaladir. Bizning nazarimizda, avvalo eng yuqori va eng kam stavkalar nisbati nimalarga bog'liqligini aniqlab olish nazariy jihatdan muhimdir. Bu erda asosiy omil – jamiyatning tabaqalarga bo'linishi, eng badavlat 10 foiz aholi bilan eng kambag'al 10 foiz aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutdir. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu koeffitsient ancha katta hisoblanadi. Shu sababli daromad solig'ining eng yuqori va eng kam stavkalari o'rtasida katta tafovut o'zini oqlaydi.

Bizga ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarning aksariyat qismida aholidan daromad solig'i ko'payib boruvchi (progressiv) usulda davlat budjetiga tortiladi (bizda ham shu usulda), ammo AQShda bunday usul mustasnodir. U erda aholidan



olinadigan daromad solig'i regressiv usulda amalga oshiriladi. Bu holatni quyidagi jadval orqali yorqin namoyon etish mumkin.

Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish amaliyotida soliq stavkasi miqdorini progressiv (ko'payib boruvchi) usuli bilan birgalikda, aholining ayrim qatlamlari uchun regressiv (kamayib boruvchi) usulidan ham foydalanish lozim. Soliqqa tortishni bu uslubining ahamiyatli tomoni shundan iboratki, daromad o'sib borgan sari soliq stavkasi miqdori muvofiq ravishda kamayib boradi.

**1.3.2-jadval.**

**AQShda soliq to'lovchi jismoniy shaxsning oilaviy maqomiga qarab soliq stavkasining o'zgarishi<sup>19</sup>**

<b>Yillik daromad bazasi (AQSh dollarida)</b>	<b>Soliq summasi</b>
<b><i>1. Birgalikda soliq deklaratsiyasini to'ldirayotgan er-xotinlardan</i></b>	
-0 dan 29750 gacha	15.0
-29751 dan to 71900 gacha	28.0
-71901 dan to 171090 gacha	33.0
-171090 va yuqorisiga	28.0
<b><i>2. Oila boshlig'idan</i></b>	
-0 dan 23900 gacha	15.0
-23900 dan 61650 gacha	28.0
-61650 dan 123790 gacha	33.0
-123790 dan yuqorisiga	28.0
<b><i>3. Yolg'iz soliq to'lovchidan</i></b>	
-0 dan 17850 gacha	15.0
-17850 dan 43150 gacha	28.0
-43150 dan 89560 gacha	33.0
-89561 dan yuqorisiga	28.0

AQShda shaxsiy daromad solig'ining yuqori (33 foiz) stavkasi daromad 148250 dollardan oshganda so'ng qo'llaniladi, ammo urtaga yillik soliq stavkasi 28 foizdan oshmaydi. Chunki buning eng xususiyatli tomoni shundaki, 33 foizli stavkadan keyingi stavka 28 foizlikdir. Mazkur stavkaning qo'llanilishi 250000

<sup>19</sup>Дрожжина И.А., Маслов Б.Г. Налоговые системы зарубежных стран. -М.: Дело и сервис. 2008. стр. 45

dollardan boshlab qo'llanilmoqda, shunday bo'lsa-da o'rtaga yillik soliq stavkasi 28 foizdan oshmagan. Bunday pasayib boruvchi stavkani qo'llashdan davlat hech qanday iqtisodiy zarar ko'rmaydi, shu bilan bir qatorda aholining daromad solig'iga bo'lgan ruhiy ishonch yo'qolmay soliq to'lashdan qochish holatlari deyarli kuzatilmaydi. Ushbu soliq yuki aholi daromadida boshqa egri soliqlarga nisbatan kam bo'lishligi kuzatiladi.

Jadvaldan ma'lum bo'layaptiki, AQSh da federal shaxsiy daromad solig'ining maksimal stavkasi 33 foizni tashkil qilsada, lekin eng oxirgi stavkasi 28 foizni tashkil qilmoqda.

Amerika aholisi uchun daromad solig'ining yuki yuqorida keltirilgan misolimizdan ma'lumki, soliqlarning yuqori stavkasi 33 foiz bo'lib hisoblansa-da, ammo soliqning o'rtacha stavkasi aholining daromadi qanchalik oshishidan qat'iy nazar 28 foizdan oshmayapti. O'zbekistonda esa daromad solig'ining stavkasi oshishi bilan, o'rtacha stavkasi ham oshib ketayapti.

Aholi daromadlaridan soliq olishda O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi asosiy farq yana shundaki, AQShda inflyatsiyaning yo'qligi tufayli daromad kategoriyalari bo'yicha soliqning eng yuqori stavkalari ko'p yillar davomida qayta ko'rib chiqilmaydi.

Biroq u erda soliq olinadigan guruhlariga tushib qolishini bartaraf qilish maqsadida inflyatsiya sur'atlari bilan mos ravishda shaxsiy daromad solig'ini indeksatsiya qilish ko'zda tutilgan. Shunday qilib, inflyatsiya sharoitida uning darajasiga qarab, nafaqat standart chegirmalar o'lchami va ko'zda tutilgan shaxsiy imtiyozlar, balki soliq guruhlari ham to'g'rilab boriladi.

O'zbekiston sharoitida oylik inflyatsiya hali ham ahamiyatli hajmni tashkil qilar ekan va shunga mos ravishda oylik ish haqi kompensatsiya qilinib, oshirilib borilar ekan daromad guruhlari bo'yicha tarif setkalari ham izchil qayta ko'rib borilishi zarur. Chunki ishchilar daromadining inflyatsion o'sishining katta qismi 33 foizli soliq stavkasiga to'g'ri kelib qoladi. Buni amalga oshirish shuning uchun ham zarurki, inflyatsiya ta'sirida aholi real daromadlarining kamayishi o'z vaqtida bartaraf etiladi.

Bu erda iqtisodiy va statistik aniq ma'lumotlar va umuman, aholining real daromadlari haqida, inflyatsiyani tashkil etuvchisi chiqarib tashlangan va inflyatsiya sur'atlari bilan to'g'rilangan doimiy baholardagi sonli ko'rsatkichlar tushuniladi.

Shu sababga ko'ra, soliq siyosatini bundan keyingi takomillashtirish doirasida daromad solig'i siyosatiga, real inflyatsiyani hisobga olgan holda, jiddiy diqqat-e'tiborini qaratish zarur.

Umuman olganda, turmush darajasini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlarda aholi daromadlarini inflyatsiyaga to'g'rilab, nominal emas, real daromadlarni aniqlash joiz, ya'ni bunda daromad soliqlari va boshqa turdagi majburiy to'lovlar chiqarib tashlanishi kerak.

## **2-BOB. IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI**

### **2.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilar, soliqqa tortish obyekti, soliqni hisoblash va budjetga undirish mexanizmi**

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish va soliqni undirish tizimini nazorat qilish samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillardan biridir.

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi.

Jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan daromadi jami yillik daromadga soliqqa tortilmaydigan daromadlarni kiritmasdan, daromadiga soliqdan ozod etiladiganlarni chiqarib tashlab aniqlanadi.


Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar daromadi rezidentlar va norezidentlar daromadiga bo'linadi.

Boshlanayotgan yoki tugayotgan moliya yilida 12 oygacha bo'lgan istalgan davrda O'zbekiston hududida 183 kun va undan ortiq yashovchi jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi rezidenti deb ataladi. Shu ko'rsatilgan muddatdan kam yashagan jismoniy shaxslarga norezident deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasida va undan tashqaridagi manbaalardan olgan daromadlari bo'yicha daromadga soliqqa tortiladi (2.1.1-chizma).

O'zbekiston Respublikasi norezidenti faqat O'zbekiston hududidan olgan daromadidan soliq to'laydi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida rezident shaxslar tomonidan to'langan soliq summasi O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash paytida O'zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro qonunlarga binoan hisobga olinadi.



2.1.1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilar tarkibi.

Hisobga olinayotgan solliq summasi O'zbekiston Respublikasida harakatda bo'lgan solliq stavkasida hisoblangan jismonii shaxslarning daromadiga solig'i summasidan oshib ketmasligi kerak.

Solliq obykti bo'lib, Solliq Kodeksiga muvofiq belgilanadigan jami yillik daromad hisoblanadi.


Bu erda eng muhim narsa jismoniy shaxsning jami yillik daromadiga qanday daromadlar kirishi, qanday daromadlar kirmasligi va qanday imtiyozlar olish mumkinligi aniq belgilashdir.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibiga solliq to'lovchi olishi mumkin bo'lgan yoki tekinga olgan pul yohud buyum shaklida olgan pul mablag'lari kiradi.

Bu yerda eng muhim narsa jismoniy shaxsning jami yillik daromadiga qanday daromadlar kirishi, qanday daromadlar kirmasligi va qanday imtiyozlar olish mumkinligi aniq belgilashdir.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibiga solliq

to'lovchi olishi mumkin bo'lgan yoki tekinga olgan pul yohud buyum shaklida olgan pul mablag'lari kiradi.



**2.1.2-rasm. Daromad solig'i bo'yicha soliq obyektlari.**

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi 3 guruhga bo'linadi:

- Mehnat haqi tariqasida olingan daromadlari (eng asosiy daromadlar);
- Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari;
- Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari.

Jismoniy shaxslarning mehnat haqi tariqasida olgan daromadlari tarkibiga mehnat shartnomasi bo'yicha faoliyatdan va fuqorolik - huquqiy shartnomalari bo'yicha olingan daromadlari kiradi.

Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1) Xodimlarga sotiladigan tovarlar(ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni(ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish narxi yoki ularning tannarxi o'rtasidagi manfiy farq.


2) Ish beruvchi tomonidan o'z faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, xodimlarning chiqimlarini qoplash uchun qilingan xarajatlar.

3) Xodim ish beruvchiga to'lashi kerak bo'lgan, ammo ish beruvchining hisobidan chiqarilgan qarz summalari:

4) Ish beruvchi o'z xodimlarining hayoti yoki sog'ligini ixtiyoriy sug'urtalash badallarini to'lash uchun qilingan xarajatlar.

5) Ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan to'lovlar yuzasidan to'lagan summalari.

6) Ish beruvchining o'z xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshqa xarajatlari.



### 2.1.3-rasm. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va jismoniy shaxslarning daromadiga soliq bo'yicha qonunchilikka binoan soliq stavkalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlariga solinadigan differentsial progressiv soliq stavkalari;

- jismoniy shaxslarning rezidentlarning dividend va foiz tarzida oladigan daromadiga soliq stavkalari;

- manbaida to'lanadigan norezident daromadiga soliq stavkalari;
- imtiyozli soliq stavkalari.

Jismoniy shaxslarning ish xaqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan soliq qo'yidagi miqdorda undiriladi:

### 2.1.1-jadval.

#### Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining solishtirma tahlili

Soliq solinadigan daromad	2013 yilgi soliq stavkasi	Soliq solinadigan daromad	2014 yilgi soliq stavkasi
eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	8%	eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	7,5 %
eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	16%	eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	16 %
eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	22%	eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	22 %

Manba: Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2.1.1-jadval ma'lumotlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 2013-2014 yillar uchun belgilangan soliq stavkalari qiyosiy tahlil qilingan. Unga ko'ra 2013 yilda soliq stavkasining quyi shkalasi 8 foiz, o'rta shkalasi 16 foiz va yuqori shkalasi esa 22 foiz miqdorida belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2099-sonli qaroriga asosan 2014 yilda daromad solig'ining quyi stavkasi 0,5 foizga pasaytirilib 8 foiz o'rniga 7,5 foiz qilib belgilandi.

Soliqqa tortish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan etiboran ortib boruvchi yakun tarzida hisoblanadi (yil boshidan e'tiboran tegishli davr uchun eng kam ish xaqining oylik miqdorlari summasi yig'indisi).



Jismoniy shaxslarning imtiyozlariga bo'lgan xuquqi ular hisobot yili uchun tegishli hujjatlarni taqdim etganda vujudga keladi.

To'rt karrali imtiyoz qishloq xo'jaligiga jalb qilingandan tashqari, jismoniy shaxslarning olgan dividend va foiz daromadlari va ijara daromadlariga ham tegishli bo'ladi.

Agar imtiyoz oluvchining asosiy ish joyi bo'lsa, imtiyoz shu erda beriladi, asosiy ish joyi bo'lmasa soliq idorasi tomonidan deklaratsiya asosida yillik daromadga qarab beriladi. Imtiyozlar olish uchun jismoniy shaxslar tegishli hujjatlarga ega bo'lishi shart.<sup>20</sup>

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyati to'xtatilgan taqdirda, soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, soliq hisobi hamda daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilish mumkin bo'lib, xabarnomada buning sababi va hisobotlari, soliq hisobi hamda jami yillik daromad va qilingan chegirmalar to'g'risidagi deklaratsiya qachon va qaysi davr uchun topshirilishi ko'rsatilgan bo'ladi.

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda soliq to'lovchi besh kun muddatda bu haqda soliq organiga yozma ravishda xabardor qiladi.

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi qn besh kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq bo'yicha hisoblar hamda daromadlar haqidagi deklaratsiyani taqdim etishi shart.

Yuqoridagi hujjatlar qonunlarda belgilangan shaklda va tartibda taqdim etiladi. Qat'iy stavka bilan soliq to'lovchi tadbirkorlar uchun soliq stavkalarini O'zbekiston Respublikagi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi va faoliyat boshlanmasdan oldin soliq summasini to'lab qo'ygan bo'lishlari shart. Aks holda ularga faoliyat yuritish uchun ruxsatnoma berilmaydi.

---

<sup>20</sup>Ваҳобов А., ЖўраевА. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик- Т.:Шарқ, 2009. 213-бет.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat budjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Davlat daromad solig'i orqali milliy daromad taqsimotini amalga oshiradi. Binobarin, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlarning o'ziga xos shakli (ularning ijtimoiy mazmuni) sifatida maydonga chiqadi va pul shaklidagi milliy daromadning bir qismi (moddiy mazmuni) hisoblanadi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida jismoniy shaxslar daromadining ish haqidan tashqari dividend, nafaqa, stipendiya, ijara haqi, tomorqa xo'jaligidan oladigan pul tushumi va boshqa shu kabi daromadlari salmog'i oshib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, fikrimizcha, avvalo, aholi pul daromadlari sarflanish tarkibini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi (2.1.2-jadval).

#### 2.1.2-jadval.

#### 2007-2013 yillarda aholi pul daromadlari sarflanish tarkibining o'zgarishi,<sup>21</sup>(%da)

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Aholi pul daromadlari jami	100	100	100	100	100	100	100
Tovar va xizmatlar to'lovi	74,3	73,5	74,7	71,8	70,7	70,5	70,3
Majburiy to'lovlar va badallar	7,7	6,7	6,5	7,4	7,1	6,9	6,7
Jamg'armalar va qimmatli qog'ozlar, valyuta xarid qilish va boshqalar	15,7	18,0	17,1	18,1	20,2	22,6	23,0
Aholi pul qoldig'ining o'sishi	1,3	2,0	2,3	1,8	1,7	2,7	2,0

<sup>21</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2.1.2-jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, aholi pul daromadlarining aksariyat qismi tovar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar hissasiga to'g'ri keladi va ushbu ulush 2007-2013 yillarda pasayish tendentsiyasiga ega, ya'ni 2007 yilda jami daromaddagi tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari ulushi 74,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 70,3 foizga teng bo'lgan. Tahlil etilayotgan davrda ushbu ulushning pasayishini ijobiy holat deb baholash mumkin. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, pul daromadlari birinchi navbatda, tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari uchun sarflanadi va ushbu sarf-xarajatlar salmog'ining kamayishi esa, aholi real daromadlari o'sishi bilan sodir bo'ladi. Aholi pul daromadida tovarlar sotib olish va xizmat to'lovlari uchun sarflar ulushining kamayishi hisobiga 2007-2013 yillarda jamg'armalar va qimmatli qog'ozlar, valyuta xarid qilishning ulushi 7,3 foizga (23,0 - 15,7%), aholi pul qoldig'ining 0,7 foizli punktga o'sishi kuzatilgan. 2007-2013 yillardagi jismoniy shaxslar daromadlari sarflanishining tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiq etilgan yillarda aholining 6-8 foiz xarajatlari soliqlar, majburiy to'lovlar va badallar hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu ulushda salmoqli hissaga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning mol-mulk va er solig'i stavkalari miqdori oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Umuman olganda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i undirishda majburiy xarakterdagi barcha to'lovlar, jumladan, er va mol-mulk solig'i miqdorlari chegirib tashlanadi, jismoniy shaxslardan daromad solig'i hisoblanish jarayonida ushbu xarajatlar inobatga olinmaydi. Shundan kelib chiqib, jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortishda ular tomonidan to'lanadigan er va mol-mulk soliqlari summasini daromad solig'i solinadigan bazadan chegirib tashlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib, respublikamizda jismoniy shaxslarga nisbatan soliq solinadigan daromadlar aniqlanishida soliqqa tortilmaydigan daromadning qat'iy miqdorini belgilash va ish haqlari oshishiga mos ravishda ushbu miqdorni oshirib borish zarur. Dastlabki davrlarda, soliqqa tortilmaydigan daromadlar bilan iste'mol savatchasi orasidagi tafovut bartaraf etilgunga qadar, soliqqa tortilmaydigan daromadning oshishi

ish haqlari oshirilishi darajasidan yuqori bo'lishi lozim. Bunda soliqqa tortilmaydigan daromadlar bilan iste'mol savatchasi orasidagi tafovutni aniqlashda jismoniy shaxslarning ish haqidani tashqari oladigan (tomorqa, mulkiy va boshqa) daromadlari va iste'mol xarajatlari tarkibini e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

## **2.2. Jismoniy shaxslar jami yillik daromadlarini deklaratsiyalash tizimining amaldagi holati tahlili**

Ma'lumki, jismoniy shaxslarning daromadlarni deklaratsiya asosida soliqqa tortish munosabatlari Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan normalar asosida tartibga solinadi.

Xususan, Soliq kodeksining 189-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining:

mulkiy daromadlari, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmasa; fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlari;

asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlari;

ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlari;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;

soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlari deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromad turlariga kiradi.

Jismoniy shaxslar 189-moddasida keltirilgan daromadlari bo'yicha jami yillik deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatib, respublika hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, u holda deklaratsiya tashqarga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etish lozim, agar ushbu shaxs 1 fevralga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Chet ellik rezident tomonidan ushbu deklaratsiyalar asosida hisoblab chiqarilgan daromad solig'i deklaratsiya topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida to'lanadi.

Agar jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadidan soliq uning arizasiga ko'ra eng yuqori stavka asosida ushlab qolingan bo'lsa, deklaratsiya taqdim etilmaydi, bundan respublika hududidan tashqaridagi hamda soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar bundan mustasno.

Chet ellik rezidentlar esa ushbu qoidalardan qat'i nazar belgilangan tartibda va muddatlarda deklaratsiya taqdim etishlari shart.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk ijarasidan olgan daromadlari yuzasidan deklaratsiya taqdim etish tartibining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiradigan bo'lsak,

Mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs tomonidan, agar ushbu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmasa, ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki deklaratsiya taqdim etiladi. Shu bilan birga, jismoniy shaxs ushbu daromadlari bo'yicha hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya ham taqdim etishi lozim.

Shu o'rinda, soliq to'lovchida "Mol-mulk ijarasidan olinadigan daromadlarga eng kam stavkada (2014 yilda 7,5 %) soliq solinsa, yil yakuni bilan hech qanday qo'shimcha daromad solig'i hisoblaydi. Nima uchun 1 aprelga qadar jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etilishi lozim?", - degan oddiy savol tug'ilishi mumkin.

Jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etilishi shart, buning asosiy sababi jismoniy shaxsga daromad solig'idan imtiyoz olish huquqi aynan ushbu deklaratsiya asosida beriladi. Bundan ko'rinadiki, jami yillik deklaratsiya taqdim etilishi faqat jismoniy shaxsning manfaati uchun xizmat qiladi.

Agar mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etishi lozim.

Shu o'rinda eslatib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 574 va 603-moddalariga hamda Uy-joy kodeksining 86-moddasiga muvofiq fuqarolar o'rtasida tuzilgan ko'chmas mulkni - uy-joyni va noturar joyni ijaraga berish shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Bunda uy-joyni va noturar joyni ijaraga berish shartnomalarini notarial tasdiqlash faqat jismoniy shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomalarga taalluqlidir. Taraflarning biri jismoniy shaxs bo'lmagan shartnomalar ixtiyoriy asosda notarial tasdiqlanishlari mumkin.

Fuqarolar o'rtasida uy-joyni va noturar joyni ijaraga berish shartnomasining bo'lmasligi yoxud ijaraga berish shartnomasining majburiy notarial tasdiqlanishiga rioya qilmaslik O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 159-1-moddasiga muvofiq eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jismoniy shaxs tomonidan jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya hamda mol-mulkini ijaraga berishdan olgan daromadi bo'yicha dastlabki deklaratsiya doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga pochta orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya blankalari soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya asosida hisoblab chiqarilgan, daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'lashlari lozim.

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olgan jismoniy shaxslar daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi va bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to'lovchidan undiriladi yoki unga qaytariladi.

Hisoblangan daromad solig'i yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda - ularning bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari to'langan taqdirda - bank kassasiga mablag'lar to'langan sana jismoniy shaxslar olinadigan daromad solig'ini to'langan sanasi deb hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

Deklaratsiya asosida hisoblangan daromad solig'i yuqorida qayd etilgan muddatlarda to'lanmagan taqdirda to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun (to'lov kuni ham shunga kiradi) 0,033 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'ladi va ushbu penyaning undirilishi soliq to'lovchini soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Jismoniy shaxslarning soliq qarzlari davlat soliq organlarining da'vo arizalari asosida sud tartibida majburiy undiriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o'zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxs tomonidan daromad to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza daromad solig'ini to'lash muddati tugaganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi ushbu Kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxs daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi arizani daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanganiga qadar bersa, soliq to'lovchi soliqning etishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Agar solig'i to'lovchi daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organi o'zidagi mavjud ma'lumotlar asosida soliq summasini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblashga va soliq to'lovchiga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi to'g'risida bildirishnoma topshirish huquqiga ega.

Soliq to'lovchi jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiyani taqdim etgandan so'ng, daromad solig'ining yakuniy summasi ushbu deklaratsiya asosida qayta hisob-kitob qilingan holda aniqlanadi.

Shu bilan birga, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlariga daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan, o'z vaqtida taqdim etmagan yoki uni atayin noto'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatgan holda taqdim etgan fuqarolarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 174-moddasi uchinchi qismida eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima qo'llanilishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013 yil 31 maydagi "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi 8-sonli qarorining 10-bandida MJtK 174-moddasi va JK 184-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikning (Soliqlar yoki boshqa majburiy



to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash) sub'ekti bo'lib, 16 yoshga to'lgan, soliq solinadigan daromad (foyda)ga ega bo'lgan va qonunga muvofiq davlat soliq organlariga daromadlari haqida deklaratsiya taqdim etishga majbur bo'lgan jismoniy shaxs hisoblanishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qarori bilan turar joylarni ijaraga berib daromad olayotgan jismoniy shaxslarning soliq solinadigan eng kam daromadlarini belgilash maqsadida, oylik ijara to'lovining eng kam miqdorlari belgilangan edi.

Unga ko'ra, oylik ijara to'lovining eng kam miqdorlari ijaraga berilayotgan turar joyning har bir metr kv. uchun Toshkent shahrida – 3000 so'm, Nukus shahri va viloyatga bo'ysinuvchi shaharlarda– 2000 so'm, boshqa hududlarda– 1000 so'm miqdorida belgilanib, joriy yilda ham ushbu miqdorlar o'zgarishsiz saqlab qolindi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2013 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2099-sonli qaroriga muvofiq 2014 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslarning soliq solinadigan eng kam daromadini aniqlash maqsadida noturar joyni va avtotransport vositasini ijaraga berganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdorlari joriy qilindi.

### 2.2.1-jadval

#### Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara haqining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini xarakterlovchi ko'rsatkich	Ijara haqining oylik eng kam miqdorlari, so'mda		
			Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyatga bo'ysinuvchi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1.	Bino:				
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv. metri uchun	3 000	2 000	1 000
	noturar joy		6 000	4 000	2 000
2.	Avtomobil transporti:				

yengil avtomobil (yo'lovchilar, yuk tashish uchun mo'ljallangan va o'rindiqlari soni haydovchini hisobga olmagan holda 8 ta joydan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	220 000
mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		430 000

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda 2099-sonli qarori asosida tayyorlandi.

Unga ko'ra,

1. Ijaraga berilayotgan noturar joylarning 1 m<sup>2</sup> maydoni uchun oylik ijara to'lovining eng kam miqdorlari:

- Toshkent shahrida - 6,0 ming so'mni,
- Nukus shahri va viloyatlar bo'ysunuvdagi shaharlarda - 4,0 ming so'mni,
- boshqa aholi punktlarida - 2,0 ming so'mni tashkil etadi.

2. Avtotransport vositalari uchun oylik ijara to'lovining eng kam miqdorlari 1 ta avtotransport vositasi uchun:

- engil avtomobillar (yo'lovchi, yuk tashish uchun mo'ljallangan va haydovchi o'rindig'ini hisobga olmagan holda 8 ta o'rindiqqacha bo'lgan avtotransport vositalari) bo'yicha - 220 ming so'm;

- mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk tashish avtomobillar uchun - 430 ming so'm miqdorida belgilandi. Yuqoridagi stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga soliq solish maqsadida qo'llaniladi.

Shundan kelib chiqib, jismoniy shaxslarning uy-joyini, noturar joyini va avtotransport vositasini ijaraga berishdan olgan daromadlariga soliq solish ijara shartnomasida belgilangan ijara haqi miqdoridan kelib chiqqan holda, biroq uy-joyini, noturar joyini va avtomobil transport vositasini ijaraga topshiruvchi jismoniy shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda

PQ-2099-son qarorining 25-ilovasiga muvofiq belgilangan ijara haqi stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan miqdorlardan kam bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

Ijara to'lovining eng kam stavkalari uy-joy, noturar joy va avtomobil transport vositasi jismoniy yoki yuridik shaxsga ijaraga berilayotganidan qat'i nazar uy-joy, noturar joy va avtotransport vositasini ijaraga beruvchi barcha jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181-moddasiga binoan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining belgilangan eng kam stavkasi bo'yicha soliq solinadi. 2014 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi 7,5 % miqdorida belgilangan.

Uy-joy, noturar joy va avtotransport vositasi yuridik shaxsga ijaraga berilgan holda ijara bo'yicha daromadlarga soliq to'lov manbaida ijara shartnomasida belgilangan ijara to'lovi summasidan kelib chiqib, biroq belgilangan eng kam stavkalardan oz bo'lmagan miqdorda solinadi.

Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 30 dekabrda 313-sonli Qonuni bilan 2012 yil 1 yanvardan boshlab Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiq, jismoniy shaxslar tomonidan turar joylarni ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida ikki martadan ortiq realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlarga soliq solinishi belgilab qo'yilgan edi.

O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 25 dekabrda O'RQ-359-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, 2014 yil 1 apreldan boshlab jismoniy shaxslar tomonidan turar joylarni ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga soliq solinishi belgilab qo'yildi.

O'n ikki oylik davr turar joyi birinchi marta realizatsiya qilingan sanadan boshlab hisoblanadi. Ko'chmas mulk - turar joy o'n ikki oylik davr ichida ikkinchi va keyingi bor realizatsiya qilinganda soliq solinishi kerak bo'lgan daromadlar

birinchi ko'chmas mulk - turar joy fondi obyektini realizatsiya qilishni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli ko'chmas mulk obyektlari - u turar joy bo'lsa ham, noturar joy bo'lsa ham - realizatsiya qilinishidan olingan daromad deb mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi, ushbu mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, inventarizatsiya qiymati va realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq e'tirof etiladi.

Ko'chmas mulk obyektlari - u turar joy bo'lsa ham, noturar joy fondi bo'lsa ham - realizatsiya qilinishidan olingan daromadlarga soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi bo'yicha solinadi.

Agar ko'chmas mulk obyekti – uy-joy, noturar joy fondi yuridik shaxs tomonidan xarid qilinsa, daromadlarga soliq to'lov manbaida solinadi, ko'chmas mulk obyekti – uy-joy va noturar joy jismoniy shaxslarga realizatsiya qilinganda esa - yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlariga realizatsiya amalga oshirilgan yildan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmasdan taqdim etiladigan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya asosida solinadi.

## 2.2.2-jadval.

**Buxoro viloyati buyicha 2014 yil 1 yanvar holatida jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish bo'yicha ma'lumot**

№	Hudud nomi	Deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni	Deklaratsiyalar soni			Deklaratsiya topshirmagan fuqarolar soni	Topshirilgan elektron deklaratsiya	Hisoblangan daromad solig'i		
			Asosiy va qo'shimcha daromaddan	Ijara (dastlabki)	Jami			Asosiy va qo'shimcha daromaddan	Ijaradan	Jami
1	Buxoro shahri	5 941	2 710	3 750	6 460	2	2 137	237 445	260 595	498 040
2	Kogon shahri	996	345	711	1 056	4	334	5 202	20 576	25 778
3	Olot tumani	443	192	275	467	2	63	4 218	11 727	15 945
4	Buxoro tumani	1 072	735	359	1 094	3	156	16 205	21 512	37 717
5	Vobkent tumani	819	453	400	853	3	119	15 359	21 730	37 089
6	G'ijduvon tumani	2 913	1 608	1 497	3 105	0	718	15 550	51 090	66 641
7	Jondor tumani	761	579	198	777	1	242	3 438	11 102	14 540
8	Kogon tumani	714	308	460	768	5	257	8 163	22 835	30 998
9	Qorako'l tumani	575	449	131	580	4	161	450 590	4 231	454 821
10	Peshku tumani	343	241	109	350	0	115	1 939	5 879	7 818
11	Romitan tumani	1 007	554	543	1 097	2	228	39 048	22 718	61 766
12	Shofirkon tumani	673	361	348	709	1	156	5 700	19 325	25 025
13	Qoravulbozor tumani	115	107	8	115	1	33	3 620	554	4 175
Jami:		16372	8642	8789	17431	28	4719	806 478,8	403 874,4	1 280 353,1

Manba. Buxoro viloyati Davlat soliq boshqarmasi hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Men bitiruv malakaviy ishi obyekti bo'lgan G'ijduvon tumani Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan

jismoniy shaxslarni deklaratsiya asosida soliqqa tortish maqsadida joriy 2013 yilning 31 dekabr holatida viloyat hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar bo'yicha jami 2909 ta ma'lumotlar olinib, shundan 2909 nafar fuqarolardan deklaratsiya qabul qilingan.

Deklaratsiya taqdim etgan 2909 ta fuqarodan 31 dekabr holatida 3103 ta deklaratsiyalar qabul qilinishi taminlanib, 1377 nafar fuqarolarga 68 811,0 ming so'mlik qo'shimcha soliq hisoblanib, 873 nafar fuqarolardan 68 268,0 ming so'm miqdorida undirilgan yoki 99,2 foizni tashkil qiladi

Soliq kodeksining 192-moddasiga soliq to'lovchilar 189-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay taqdim etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, 31 dekabr holatida muddatidan kechiktirib deklaratsiya taqdim etgan 7 nafar fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-modda 3-bandiga asosan 577,1 ming so'm miqdorida jarima qo'llanildi hamda 159<sup>1</sup>- moddaga asosan fuqarolar o'rtasida binoni, inshootni, turar joyni ijaraga berish shartnomasining mavjud emasligi yoxud ijaraga berish shartnomasining majburiy notarial tasdiqlanishiga rioya qilmaslik bo'yicha 6 ta holatda 549,2 ming so'm miqdorida ma'muriy choralar ko'rildi.

### **2.3. Elektron soliq deklaratsiyalari dasturiy mahsuli bilan ishlash va deklaratsiyani elektron tarzda taqdim etish tartibi**

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 5-sentyabrdagi «Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3127-sonli Farmoni hamda Adliya vazirligida 2008-yil 21-yanvarda 1760-son bilan ro'yhatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining «Soliq hisobotlarining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan.

Ushbu Reglament O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23 avgustdagi «Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 181-sonli qaroriga binoan Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatiladigan elektron soliq deklaratsiyasini qabul qilish va qayta ishlash bo‘yicha bazaviy interaktiv davlat xizmatining (keyingi o‘rinlarda interaktiv davlat xizmati deb ataladi) tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.

Reglamentda interaktiv davlat xizmatining tarkibi, mazmuni, xizmat ko‘rsatish turi, shakli va usuli, kutilayotgan natija, xizmat ko‘rsatish muddati va boshqa qoidalar ifodalangan.

Interaktiv davlat xizmatining tarkibi jismoniy shaxslardan asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani elektron ko‘rinishda jo‘natish, qabul qilish va qayta ishlash xizmatlarini web texnologiyalari orqali amalga oshirishdan iboratdir.

Interaktiv davlat xizmatining mazmuniga qo‘yidagilardan iborat:

-elektron soliq deklaratsiyalarini shakllantirish, elektron raqamli imzo bilan imzolash, shifrlash va elektron hujjat ko‘rinishida soliq idoralariga jo‘natish;

-davlat soliq xizmati organlari tomonidan elektron soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, ro‘yhatga olish va qayta ishlash;

-elektron hujjat ko‘rinishida soliq deklaratsiyalarini yuborgan soliq to‘lovchilarga, ularni qabul qilinganligi yuzasidan tasdiqnoma yuborish, shu jumladan, belgilanmagan shaklda taqdim etilgan hisobotlar yuzasidan yozma bildirishni jo‘natish;

-soliq to‘lovchi tomonidan, yozma bildirish olingandan so‘ng, belgilanmagan shaklda taqdim etilgan soliq deklaratsiyalarini qayta to‘g‘ri shakllantirish va o‘rnatilgan tartibda elektron hujjat ko‘rinishida davlat soliq xizmati organlariga jo‘natish;

-elektron ko‘rinishda taqdim etilgan hisobotlarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar davomida saqlash.

Interaktiv davlat xizmati Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti orqali ko‘rsatiladi.

Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy saytida soliq to‘lovchilarga tasdiqlangan shakllardagi soliq deklaratsiyalarini elektron ko‘rinishda shakllantirish imkoniyati yaratilgan. Shu jumladan, ma’lumotda soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, soliq davri, soliq summasi, elektron hujjatni jo‘natuvchi soliq to‘lovchining nomi, elektron hujjatni jo‘natuvchining pochta va elektron manzili, hujjat yaratilgan sana ko‘rsatilishi lozimligi ko‘zda tutilgan.

Elektron ko‘rinishda shakllantirilgan soliq deklaratsiyalarining himoyasini ta’minlash maqsadida kriptografiya himoya vositalari qo‘llaniladi. Soliq deklaratsiyalari soliq to‘lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanib, davlat soliq xizmati organlariga yuboriladi.

Elektron ko‘rinishdagi soliq deklaratsiyalari Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti orqali jo‘natilib, soliq deklaratsiyani qabul qilib oluvchining elektron manzilidan qabul qilib olinganligi to‘g‘risida tasdiqnoma kelgan va bekor qilib bo‘lmaydigan vaqt soliq deklaratsiyani taqdim etish sanasi va vaqti hisoblanadi.

Elektron ko‘rinishdagi soliq deklaratsiyani qabul qilib olish vaqtida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining dasturiy vositalari mazkur ma’lumotni qabul qilib olinganligi to‘g‘risida, qabul qilib olingan sanasi va vaqti ko‘rsatilgan holda, avtomatik tarzda tasdiqlanishini ta’minlaydi.

Elektron soliq deklaratsiyalarini qabul qiluvchi mas’ul xodimlar soliq to‘lovchilardan qabul qilingan ma’lumotda quyidagilarning mavjudligini tekshiradilar:

-ma’lumotlar shakllarining to‘liqligini;

-ma’lumotdagi deklarantning elektron raqamli imzoning mavjudligini (elektron hujjat imzolanayotgan paytda elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini amal qilib turganligi ham tekshiriladi);



-ma'lumotdagi barcha majburiy rekvizitlarini (soliq to'lovchining identifikatsiya raqamlari, yuridik manzili, sanalar va shu kabilarni) to'ldirilganligini;

Ma'lumotdagi shakllarda nazarda tutilgan barcha ko'rsatkichlarni to'ldirilganligini.

Ma'lumotga doir e'tirozlar bo'lmagan taqdirda taalluqli kompyuter dasturi orqali hisobot kuniga hisoblangan soliq to'lovlari summalari ko'rsatkichlari hisob varaqlariga yozuvlarni o'tkazish va budjet bilan o'zaro hisob-kitoblarga ko'ra operativ taqqoslanishni amalga oshirish uchun, soliqlar tushumini hisobga olish, tahlil qilish va soliq statistikasini olib boruvchi tuzilmaga topshiriladi, shundan keyin budjet bilan hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlar ko'chirilib, soliq summalarining shaxsiy kartochkalariga o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot kompyuterdan chiqarilib, belgilangan tartibda hisobotlarni qabul qiluvchi bo'linmaga topshiriladi.

Elektron shakldagi ma'lumot qabul qilinganligi haqida davlat soliq inspeksiyasining mansabdor shaxsi tomonidan elektron raqamli imzo qo'yiladi va imzolangan ma'lumot soliq to'lovchiga qaytariladi.

Davlat soliq inspeksiyasining hisobotlarni qabul qiluvchi mas'ul xodimi tomonidan deklarantning elektron soliq deklaratsiyasi tushgandan so'ng, uning olinganligi soliq to'lovchilarning «Soliq deklaratsiyalarini ro'yhatga olish jurnali»ga bir kun muddatda qayd qilinadi.

Taqdim etilgan elektron soliq deklaratsiyalaridagi ma'lumotlar belgilangan talablarga muvofiq kelmagan taqdirda davlat soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan, Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda «Ma'lumotga doir mulohazalar» tayyorlanib, davlat soliq inspeksiyasining mansabdor shaxsi tomonidan elektron raqamli imzo qo'yilib, qayta ishlash uchun deklarantga qaytariladi. Bildirilgan mulohazalarni hisobga olgan holda takroran ishlab chiqilgan elektron soliq deklaratsiyasi davlat soliq xizmati organiga belgilangan tartibda qayta taqdim etiladi.

Elektron shaklda taqdim etilgan soliq deklaratsiyasiga doir ma'lumotlar maxsus ajratilgan kompyuterlarda saqlanadi. Elektron soliq deklaratsiyalarini saqlash chog'ida ulardan foydalanish va ularning qog'oz nusxalarini chiqarish (chop etish) imkoniyati ta'minlanishi lozim.

Elektron shakldagi hisobotlarni saqlash muddati, qog'oz nusxalardagi hisobotlar uchun belgilangan muddatdan kam bo'lmasligi kerak.

Elektron shakldagi hisobotlarni jo'natish, qabul qilish va qayta ishlash davomida soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari tomonidan Adliya vazirligida 2007 yil 13 avgustda 1702-son bilan ro'yhatga olingan «Moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarini elektron shaklda taqdim etishda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari uchun yo'riqnoma»ga asosan axborot xavfsizligi ta'minlanishi lozim.

Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatishning asosiy maqsadi va vazifasi soliq to'lovchilarga qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatish soliq to'lovchilarning sarf harajatlarini kamaytirishga va soliq to'lovchilarning vaqtini tejashga olib keladi. Soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan axborot xizmatlar sifati oshiriladi. Bundan tashqari soliq to'lovchi hamda soliq organlarining o'zaro munosabatlarida sub'ektiv aralashuvlar cheklanadi.

Interaktiv davlat xizmatini ko'rsatish soliq ma'murchiligini takomillashtirishga, soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'g'risidagi qonunlar bajarilishini nazorat qilish va tahlil ishlari samaradorligini oshirishga olib keladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan soliq deklaratsiyalarini elektron ko'rinishda taqdim etilishi elektron ma'lumotlar bazasini shakllanishini ta'minlanadi.

Ma'lumotlarni elektron ko'rinishda qabul qilish yuzasidan xizmat ko'rsatish elektron soliq deklaratsiyalari haqiqatda kelib tushgan vaqtda amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar olish bo'yicha kutish vaqti Internet tarmog'i va kompyuter uskunalari texnik ko'rsatkichlariga bog'liq.

Elektron ko'rinishda shakllantirilgan hisobotlarni soliq idoralariga yuborish va ularni qabul qilish bo'yicha xizmatlar bepul hisoblanadi.

Интерактив davlat xizmatini ko'rsatish yuzasidan shikoyat qilish «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni talablari asosida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan daromadlari to'g'risida deklaratsiyani elektron tarzda taqdim etish tartibi

1. Jismoniy shaxs o'zining davlat soliq xizmati organiga daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyasini elektron tarzda taqdim etish uchun avvalo O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining (keyingi o'rinlarda – DSQ deb yuritiladi) Yangi ilmiy axborot markazi tomonidan olingan elektron raqamli imzoga (keyingi o'rinlarda – ERI deb yuritiladi) bo'lishi shart.

2. ERIGA ega bo'lgan jismoniy shaxs uni fleshkaga saqlagan holda, DSQning <http://soliq.uz/> yoki <http://hisob.t.uz/> elektron manzillaridan biriga kirib, kompyuter ekarinda hosil bo'lgan o'ziga tegishli STIRni tanlaydi va parolga ham mazkur STIRni kiritgandan so'ng quyidagi ko'rinishdagi oyna shakllanadi.



3. Deklaratsiya taqdim etuvchi jismoniy shaxs yuqorida qayd etilgan ko'rsatilgan amallarni bajargandan so'ng o'zaro muloqat (dialog) tarzida ishlabchiqilgan dasturiy mahsulning birinchi bosqichida keltirilgan dastlabki so'rovnomalarni to'ldirib chiqadi va «Keyingi bosqichga o'tish» tugmasini bosadi.

Декларацияни шакллантириш ва жузатиш

Декларация турини танланг

Йиллик  
 Иккитёрлий  
 Даствабди (ижара бўйича)  
 Яқуний (ижара бўйича)

Декларацияни қайси йил учун шакллантирмоқдасиз 2011

Ўзбекистон Республикасига қириб келган кунингиз 01.01.2011

Телефон рақамингизни қиритинг

Ucell - 99893 5159086

Даромад манбалари

Нечта асосий иш жойидан даромад олгансиз? 1

Нечта асосий булмаган иш жойидан даромад олгансиз? 1

Нечта манбадан фан, адабиёт ва санат асарларини яратганлик ва улардан фойдаланганлик учун муаллифлик ҳақи қурнишида даромад олгансиз? 1

4. Deklaratsiya taqdim etuvchi jismoniy shaxs tomonidan keying bosqichda har bir daromad manbai bo'yicha ketma-ketlikda keltirilgan savolnomalarni to'ldirib chiqilib, «Keyingi bosqichga o'tish» tugmasi bosiladi.

Асосий иш жойидан олинган даромадлар

2011 йили 1-асосий иш жойингиз ҳақида маълумот

Корхона СТИРи 200754876

Корхона номи ЧЕЛАК ПАХТА ЗАВОДИ О.А.Ж.

Ишлаган муддатини белгиланг

бошланиши 01.01.2011

тугashi 31.12.2011

Даромад ҳақида маълумот

Маълумот номери 154

Маълумот санаси 31.12.2011

Солиқ кодексининг 180 моддасига асосан солиқ тўлашдан озодмисиз? Йўқ

даромад суммаси 12000000

шундан туланган даромад солиғи суммаси 2040000

ИНПС суммаси 120000

Солиқ кодексининг 179 моддасига асосан солиқ тўлашдан озодмисиз? Йўқ

Кейинги босқичга ўтиш

5. Deklaratsiya taqdim etuvchi jismoniy shaxslar keyingi bosqichda daromadlari to'g'risida shakllangan deklaratsiya ma'lumotnomasini ko'rib chiqib, ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilgandan so'ng «Jo'natish» tugmachasini bosish orqali davlat soliq xizmati organiga yuboradi va dasturiy mahsulning tepa o'ng burchagida turgan «Chiqish» tugmachisini bosish orqali jarayonni yakuniga yetkazadi

### **3-BOB. IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA JISMONIY SHAXSLARLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INI HISOBLASH VA BUDJETGA UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari**

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri jismoniy shaxslardan olinadigan daromadsolig'ini muvofiqlashtirish hisoblanib, bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda, birinchi navbatda aholining real daromadlarini oshirish va iqtisodiy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan to'lovga layoqatliligini kuchaytirish asosiy o'rinda turibdi. Shuning bilan birgalikda jismoniy shaxslar to'laydigan daromad solig'i budjet daromadlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'idan keyin - uchinchi, to'g'ri soliqlar tarkibida esa birinchi o'rinni egallaydi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni jahon amaliyotining guvohlik berishiga ko'ra deyarli barcha rivojlangan davlatlarda progressiv stavkada undiriladi. Masalan, jismoniy shaxslar daromadlari AQShda 15 foizdan 39,6 foizga qadar, Buyuk Britaniyada 20 foizdan 40 foizga qadar, Frantsiyada 0 foizdan 56,8 foizga qadar, Germaniyada 19 foizdan 53 foizga qadar, Yaponiyada esa 10 foizdan 50 foizga qadar progressiv stavkada undiriladi<sup>22</sup>.

Respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyoti joriy etilgandan e'tiboran differentsial progressiv stavka qo'llanilib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz soliq tizimida jismoniy shaxslar daromadlarini ushbu tartibda soliqqa tortish o'zining bir qancha quyidagi afzalliklariga ega:

- soliqni hisoblash tartibi imkon qadar osonlashadi;
- jismoniy shaxslarni ko'proq daromad topishga bo'lgan moyilligi kuchayadi

---

<sup>22</sup> Завалишина И. Налоги: теория и практика. -Т.: “Мир экономики и права”. 2005. стр. 112

va real daromadlarini oshirishga bo'lgan intilishlari ortadi. Bu esa, jismoniy shaxslarni mehnat qilishga qiziqishiga, ishsizlar sonini kamayishiga hamda turmush darajasini ko'tarishga soliq vositasida rag'bat berish imkonini beradi;

–yashirin tarzda daromad topayotgan jismoniy shaxslarga daromadlarini ochiq-oydin oshkor etish imkoniyatini beradi, ular soliq stavkasi pastligi hisobiga soliqdan cho'chimaydilar;

–bu stavka hamma jismoniy shaxslar uchun bir xil bo'lishini belgilaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha jismoniy shaxslar teng huquqli bo'lgani uchun ham soliq solinishi ham teng bo'lishi lozim;

–davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha soliqdan qochish va bo'yin tovlash bo'yicha qilinadigan ma'muriy xarajatlar tejaladi;

–eng asosiysi esa bunday tizim barcha jismoniy shaxslarga tushunarli bo'lib, turli tushunmovchiliklar barham topadi, ular o'z haq-huquqlarini himoya qila oladilar.

Lekin jismoniy shaxslar daromad solig'i yagona stavkasi budjetga bu soliq turi bo'yicha tushumlar kamayishiga olib kelmasligi lozim. Bu bir qadar murakkab jarayon bo'lib, soliqning optimal stavkasini aniqlash munozaraligicha qolmoqda. Ushbu masalani echishda soliqlarga doir bo'lgan jihatlarni e'tiborga olish bilan birgalikda, boshqa sohalarda ham islohotlar olib borish lozim. Ularning asosiylari sifatida mamlakatimizda investitsion muhitni yanada yaxshilashga e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, faqatgina investitsiya hajmining ortishigina yangi ish o'rinlarini yaratadi. Bu esa bugungi kunda respublikamizdagi ko'plab norasmiy ishsizlarni ish bilan ta'minlash imkonini beradi, o'z navbatida ularning daromadlarini soliqqa tortish orqali yuqoridagi nomutanosiblikni bir qadar bartaraf etishga erishiladi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarni ayrim faoliyat turlari bo'yicha soliqqa tortish jarayoni erkinlashtirilishilozim. Hozirgi paytda qaror topgan amaliyot mexanizmida jismoniy shaxslarning muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanishi bir qadar hujjatbozlikni talab etadi. Bunday sharoitda ular daromadlari yagona

pastroq stavkada soliqqa tortilsada, jismoniy shaxslarning daromadlarini ochiq-oydin oshkor etish imkoniyatlarini cheklaydi.

Umuman olganda bugungi kunda respublikamiz soliq tizimida jismoniy shaxslar daromad solig'i muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu soliq turi bo'yicha islohotlar amalga oshirilishida ehtiyotkorona yondashishni talab etadi. Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarini takomillashtirishda bosqichma-bosqich islohotlarni davom ettirgan holda, uning stavkalarini uch pog'onali tizimdan ikki pog'onali tizimga va shu tarzda yuqoridagi yo'nalishlarni hisobga olgan holda yagona stavkani joriy etish o'z samarasini beradi.

Fikrimizcha, jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi bir qator kamchiliklardan holi emas.

Shunga asosan aytish mumkinki, ushbu soliqqa tortish tizimi ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlarida o'zi yo'q odamni rasmiylashtirishga, ya'ni norasmiy ishlovchilar sonini oshirishga bo'lgan g'ayriqonuniy fikrlarni vujudga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, ushbu soliqqa tortish tartibini mavjud kamchiliklardan holi etish va takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Fikrimizcha, mazkur soliqqa tortish tartibini takomillashtirish quyidagi uch yo'nalishda bo'lishi zarur.

Birinchi yo'l - ortiqcha sarf qilingan mehnat orqali oshirilgan ish xaqini rag'batlantirish funksiyasini oshirish.

Ikkinchi yo'l - ish xaqidan ushlanadigan daromad solig'i foiz hisobida aniqlanib, uning miqdori faqat bir xil foizda bo'lishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, bunday usulda soliqni chetlab o'tishni iloji yo'q, davlat budjeti zarar ko'rmaydi, aksincha yuqorida misol qilib olingan qo'shtirnoq ichidagi ishbilarmonlar hisobidan davlat budjeti ko'payishiga shak-shubha yo'q.

Bundan tashqari, bunday usulni qo'llanilishi respublikamizdagi 350 minglik buxgalterlar ishini ancha engillashtiradi. Chunki bir kishi ish xaqidan ushlanadigan daromad solig'ining hisob-kitob ishlarini, yana, uning ustiga, soliqni har oyda

qo'shilib borishi orqali aniqlanishini nazarda tutilsa, buxgalter tomonidan bajariladigan ish hajmi va o'zi bilib-bilmagan holda xato qilishini ko'z oldimizga keltiraylik.

Shu bilan birga auditorlik yoki soliq inspeksiyasi tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarda vaqt etmasligi uchun bu sohani sifatli tekshirilishiga hech qanday shubha yo'q. Agar soliq yagona foizda ushlansa nafaqat bir oylik, hatto yillik oylik soliq hajmini tekshirish uchun bir necha daqiqagina sarf bo'ladi xolos.

Uchinchi yo'l - davlat budjeti tomonidan moliyalashtirilgan muassasalar ishchi-xizmatchilarini nominal ish xaqidan real ish xaqiga o'tkazish.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hech bo'lmasa, budjet muassasalarida real ish xaqi to'lash usuliga o'tish vaqti keldi.

Mamlakatning iqtisodiy sohasi aholining iqtisodiy ongi va iqtisodiy madaniyati asosida takomillashib boradi. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga hamda insonda soliq madaniyatining shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, insonda soliq madaniyatining shakllanishi murakkab jarayondir. U inson ongli faoliyatining asosini tashkil etadi. Insonning soliq to'lovi faolligi turli xil soliq to'lovlarida va ijtimoiy-iqtisodiy islohot va jarayonlarni qo'llab-quvvatlashida namoyon bo'ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tartibini takomillashtirish masalalaridan biri bo'lgan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorni aniqlash va soliq ortib borishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslariga nisbatan yuqorida bildirilgan fikrlarning inobatga olinishi, aholidan olinadigan daromad solig'i tartibini davr talabiga moslab takomillashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

### **3.2. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalashning kontseptual asoslarini takomillashtirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida endigina shakllana boshlagan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishning mavjud usullarini tahlil qildik. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalash orqali



soliqqa tortishning chet el tajribasiga nazar tashladik. Tabiiy ravishda ishimizning uchinchi bobida ishimiz oldida turgan asosiy mavzu – bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va o'rta biznesni rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib turgan vaqtda jismoniy shaxslarning daromadlarini qanday va qanaqa usullar yordamida soliqqa tortish ayni muddao bo'lar edi degan savolga ilmiy javob topib berishga urinib ko'ramiz, xususan ilmiy ishimizning uchinchi bobi mazkur savolini jismoniy shaxslar yillik daromadini deklaratsiyalash usulini mamlakatimizda qo'llashni joriy etishning ahamiyati va zarurligi jihatlariga bag'ishlaymiz.

Ijtimoiy xarakterning muhim omili – bu davlat foydasiga soliqlarni to'lashga nisbatan ma'naviy anglashning rivojlanishidadir. Faqatgina o'n to'qqizinchi asrda fuqarolarda davlatga to'lov to'lash majburiyatini his etish rivojlana boshlaydi. Aftidan bu erda N. Turgenevning qo'yidagi fikri bilan rozi bo'lmay iloji yo'qdir: - «Aholi ma'lumot saviyasining o'sib borishi ular huquqlar va urf-odatlariga ijobiy ta'sir qilib borgani sari, soliq tizimining ham takomillashib borishiga xizmat qila boshladi. Fuqarolar ularni ezib kelgan qullikdan xalos bo'la boshladilar, mulkchilik huquqlaridan kengroq ma'noda foydalana boshladilar, soliqlar ko'proq adolatli ravishda to'lana va taqsimlana boshladi va anchagina tayyor holda to'lana boshlandi».<sup>23</sup>

Davlat ijtimoiy xarajatlarining jumladan ta'lim soha va sog'liqni saqlash xarajatlarining o'sib, tobora ko'payib borishi davlat faoliyatini oddiy soliq to'lovchi uchun yanada muhimroq qilib qo'ya boshladi. Xalq soliqlarni istabroq to'lay boshladi. Bu psixologik ustqurma aholini, o'z daromad miqdorlarini ixtiyoriy bayon etishlariga asoslangan holda daromadlarni to'g'ri soliq'larga jalb etishni rivojlantirishda ustalik bilan foydalanildi.

Iqtisodiyotda davlat sektorining hukmronlik qilishi soliqlarni daromad olish manbalaridan undirish tizimini vujudga keltirishga imkon yaratgan edi.

---

<sup>23</sup> Тургенев Н. Опыт теории налогов. СПб., 1818, с.6-7

Markazlashtirilgan tartibda o'rnatiladigan stavkalar va tariflarning ish haqi fondidagi salmog'i 4/5 ga teng bo'lib, bu narsa aholini soliq munosabatlarida har qanday faollikdan maxrum qilar edi. Bundan tashqari ish haqi darajasining qattiq tartibga solinib boshqarilib turilishi bo'lajak soliqning miqdorini avvaldan aniqlashga va uni ish haqining tarkibiy qismi sifatida kiritilishiga imkon yaratar edi. Soliqni, to'lanadigan summani tegishli o'zgartirish yo'li bilan ham undirish mumkin edi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy va siyosiy islohotlar jarayonlari moliyaviy fondlarni shakllantirish jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi, ayniqsa deyarli ahamiyatsiz bo'lgan aholidan olinadigan to'g'ri soliqlar, xususan daromad solig'ining mohiyatan va ahamiyat jihatidan o'zgacha ma'no kasb etishini taqozo etdi.

Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda ma'muriy boshqaruvni soddalashtirish va engillashtirish shuningdek soliq to'lovchi jismoniy shaxslar o'rtasida soliq yukini to'g'ri, adolatli va teng taksimlanishini ta'minlash maqsadida, daromad solig'ini undirishda aholi va davlat hokimiyati o'rtasida daromad solig'ini undirish yuzasidan o'zaro dekmokratik munosabatlarning o'rnatilishini yuzaga keltirish maqsadida aholi daromadlarini umumdeklaratsiyalash orqali soliqqa tortish tizimini joriy etish talab qilinadi.

Bizning mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan fuqarolarimiz oldida tadbirkorlikning turli ko'rinishlari bilan shug'ullanib daromad topishning ulkan imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bunday faoliyat turlariga turli ko'rinishdagi savdo-xarid faoliyatini, mulkni ijaraga berishni, dividendlarni, bir marotabalik ishlarni, va qonunchilikda ruxsat qilingan son – sanoqsiz turli faoliyat turini keltirish mumkin. Bundan tashqari, mulkchilikning mavjud shakllari tubdan o'zgardi. hozirgi vaqtda amaldagi qonunchilikka asosan jismoniy shaxs o'z qaramog'ida va tasarrufida korxonalariga, zavodlarga, fabrikalarga, tsexlarga ega bo'lishi mumkin, ya'ni bugun uning mol-mulki faqat uy-joy va avtomashina bilan cheklanmaydi. Oxirgi yillarda iqtisodiyotda ro'y bergan tub o'zgarishlar soliqlarning ham taraqqiy etishini taqozo etadi, aholi soliq madaniyatining shakllanishini talab qiladi.

Daromad olishning biz yuqorida aytib o'tgan keng imkoniyatlarining paydo bo'lishi ularni soliqqa tortishni ham murakkablashtiradi, ya'ni daromadlarni aniqlashning va soliqqa tortishning turli usullari vujudga keladi va yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan daromad solig'ini undirishning hozirgi ahvoli yil davomida avans to'lovlarini daromadlarning o'sib borish tartibida undirib, har oyda qayta hisob-kitob qilib borish, asosiy ish joyidan tashqaridan ishlab daromad topuvchi shaxslarning daromadlarini esa daromad to'lanayotgan vaqtda soliq ushlab qolib, yil tugagandan keyin esa deklaratsiyalar ta'dim etish orqali qayta hisob-kitob qilib chiqish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib daromad topuvchi jismoniy shaxslarning esa daromadlarini qat'iy belgilangan stavkalarda soliqqa tortish amaliyotlarini o'z ichiga oladi.

Bu erda asosiy ish joyidan tashqaridan daromad topuvchi jismoniy shaxslardan daromad manbasidan soliq ushlab qolish tartibi daromad solig'ining to'lovlarini birlamchi xarakterga ega bo'lishi bilan ajralib turadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bir martalik operatsiyalarni amalga oshirib daromad topuvchi jismoniy shaxslardan bir martalik deklaratsiyalar taqdim etilishi asosida soliq undirilishi ham yakunlangan jarayon emasdir. Shuning uchun bunday fuqarolarga nisbatan soliqqa tortishning real obykti masalasi ochiq qolmoqda. Bunday jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish yil yakuni bilan yillik umumiy daromadlar yuzasidan yakuniy deklaratsiyalar taqdim etilganda hal etiladi.

Hozirgi vaqtda yillik umumiy daromadlarini deklaratsiyalashdan va qat'iy soliq stavkalari bo'yicha soliqqa tortiladigan jismoniy shaxslardan tushgan daromad solig'ining jismoniy shaxslar daromad solig'ining umumiy tushumlaridagi hissasi 15 foizga to'g'ri keladi. Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning daromadni to'lash manbasidan soliq to'lovlarini ushlab qolish tizimiga asoslangan usuli vaqt o'tishi bilan soliqqa tortishni to'g'ri va to'liq bajara olmay qoladi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda yuzaga kelayotgan ushbu muammolarni hal etish uchun daromadlarni deklaratsiyalashning umumiy tizimini joriy etish kerak.

Bizga ma'lumki, mehnat qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqari boshqa korxonada, tashkilotlarda o'rindoshlik asosida hamda o'ziga tegishli mol-mulkni ijaraga berish orqali va qonun bilan taqiqlanmagan faoliyatlar bilan shug'ullanib, cheklanmagan miqdorda daromad olishlari mumkin. Olingan daromadlarga esa qonunchilikda belgilangan tartibda deklaratsiya asosida soliq solinadi. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash tizimining bosh maqsadi hisobga olinmagan va soliqqa tortilmagan daromadlarni deklaratsiyalash yo'li bilan soliqqa tortishdan iborat. Joriy yilda jismoniy shaxslar daromad solig'ining stavkasi pasaytirilishi bilan birgalikda ularning soliqqa tortish bazasi ham kengaytirildi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlaridan to'lanadigan daromad solig'i bo'yicha soliq solinadigan eng kam daromadlarni aniqlash maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan turar joy va noturar joylarni hamda avtotransport vositalarini ijaraga berishda oylik ijara to'lovining eng kam miqdorlari belgilandi.

Unga ko'ra 2014 yildan boshlab, noturar joylarning 1 m<sup>2</sup> uchun (umumiy maydondan kelib chiqib) oylik ijara to'lovining eng kam miqdorini uning joylashgan joyiga qarab tabaqalashgan miqdorlari belgilandi. Xususan, Toshkent shahrida - 6,0 ming so'm, Nukus shahri va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarda - 4,0 ming so'm, boshqa aholi punktlarida - 2,0 ming so'mni tashkil etadi. Masalan, Toshkent shahrida 50 kv.m noturar joyni ijaraga berishda oylik ijara to'lovining eng kam miqdori 300000 so'mni tashkil etadi<sup>24</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181-moddasiga ko'ra jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkini ijaraga berishdan olgan daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi asosida soliqqa tortiladi.

Shu bilan birga, joriy yildan jismoniy shaxslarning avtotransport vositalari

---

<sup>24</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 25 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2014 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-2099-сонли қарори.

uchun oylik ijara to'lovining eng kam miqdorlari ham belgilandi. Engil avtomobillar (yo'lovchi, yuk tashish uchun mo'ljallangan va haydovchi o'rindig'ini hisobga olmagan holda 8 ta o'rindiqqacha bo'lgan avtotransport vositalari) 1 ta avtotransport vositasi uchun 220 ming so'm, mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk tashish avtomobillar uchun 430 ming so'mdan iborat bo'ldi.

Soliq kodeksiga asosan mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida soliq solinmasa, ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya taqdim etadi va hisoblangan daromad solig'ini har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak<sup>25</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni keltirib o'tishimiz joizdir:

- Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo'yicha dastlabki deklaratsiya topshirishlari lozim. Agar fuqaroda Soliq kodeksining 180-moddasiga asosan imtiyozi mavjud bo'lsa, jami yillik deklaratsiya qilingandagina ushbu imtiyozdan foydalana oladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda dastlabki deklaratsiya qilinayotgan vaqtda imtiyozni inobatga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning natijasida fuqarolarning soliq idoralariga murojaatlar sonini hamda sarf-xarajatlar miqdorini kamaytirish bilan birga davlat soliq xizmati xodimining ish xajmini qisqartirilishiga erishiladi.
- Dastlabki deklaratsiya topshiruvchi jismoniy shaxslar amaldagi tartibga ko'ra yil yakuni bilan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay jami yillik deklaratsiyani taqdim etishi lozim. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, fuqaroning

---

<sup>25</sup> Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси 193-моддаси Т.Адолат. 2010 й.

ijaradan boshqa soliqqa tortiladigan daromadi mavjud bo'lmasa jami yillik deklaratsiya topshirishi lozim emas. Chunki, yakuniy hisob-kitoblar natijasida faqat ortiqcha to'lovlar yoki xech qanday qo'shimcha soliq summasi paydo bo'lmaydi.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etilishi jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish tizimini rivojlantirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

## **Xulosa va takliflar**

“Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’ini hisoblash va budjetga undirish tartibini takomillashtirish yo’nalishlari” mavzusida bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida olib borgan tahlillarimiz natijasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i mexanizmi o’rganilib, soliqni hisoblash, budjetga undirish mexanizmidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo’llari hamda daromadlarni deklaratsiyalash tizimini takomillashtirishning asosiy yo’nalishlarini ishlab chiqishga muvofaq bo’ldik.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i bo’yicha soliqqa tortish tartibini takomillashtirish maqsadida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimida bir qator munozarali holatlar o’rganildi va muammolar echimlarining ilmiy asoslari ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda yuqori va barqaror o’sish sur’atlarini ta’minlash sharoitida olib borilayotgan soliq islohotlari va soliq to’lovchilar va davlat budjeti manfaatlarini o’zida aks ettirishi lozim bo’ladi. Biz jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i mexanizmini va soliq tizimini o’rganish hamda ularni soliqqa tortish jarayonlarini takomillashtirish bo’yicha quyidagi tavsiyalarni berishni lozim deb topdik:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’ini hisoblash jarayonida jismoniy shaxslar uchun soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etish lozim. Jismoniy shaxslarga nisbatan soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etilishi natijasida bir tomondan aholini ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamini yanada himoyalaniishi ta’minlansa, ikkinchi tomondan barcha rivojlangan davlatlar tendentsiyalarini soliq tizimiga joriy etilishi ta’minlanadi.

2. Soliq qonunchiligiga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’ini hisoblashning amaldagi usuli jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash va daromad solig’ini hisoblab chiqarishda chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu, o’z navbatida, mazkur soliqning budjetga o’z vaqtida to’liq undirilmasligi va moliyaviy jarimalar qo’llanilishiga olib kelmoqda.

3. Tahlillar ko'rsatishicha, respublikamizda daromadlarini deklaratsiyalovchi jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy va ma'muriy jarimalar soni oshib bormoqda. Jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimi bo'yicha qonunchilik talablarini buzishning keng tarqalgan shakli asosan deklaratsiyani kechikib taqdim etishidir. Mazkur natijalar, soliq organlarining jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimidagi to'lov intizomini mustahkamlash va daromadlarni deklaratsiyalash bo'yicha tushuntirish ishlari, targ'ibot-tashviqot tadbirlarini kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

4. Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan soliq imtiyozlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning bir guruhiga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda ularga nisbatan imtiyozlar qo'llanilmayapti. Bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan imtiyozga ega fuqarolarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan taqdirda qat'iy belgilangan soliq bo'yicha ham soliq imtiyozini qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

5. Jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq qonunchiligini yanada chuqurroq bilishlari hamda ularda soliq madaniyatini takomillashtirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining o'rnini yanada oshirish lozim.

6. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda davlat interaktiv xizmatlaridan samarali foydalanish maqsadida interaktiv xizmatlarning ommalashuvini tashkil etishda mahalliy hokimiyat organlari yordamida tushuntirish ishlarini va o'quv seminarlarini tashkil etish.

7. Jahon amaliyotida jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda progressiv soliq stavkalari bilan birgalikda yagona, oddiy foizli stavkada soliqqa tortish amaliyoti ham qo'llanilib kelinmoqda va bu amaliyot soddaligi bilan o'z samarasini bermoqda. Bizningcha, milliy soliq tizimida soliqqa tortish amaliyotida jismoniy shaxslarning ish haqi shaklidagi daromadlarini soliqqa tortishda 3 shkalali stavkalardan 2 shkalali stavklarga o'tish va asta-sekin yagona stavka joriy etish lozim.



Bizning mazkur bitiruv malakaviy ishi darajasida bergan takliflarimizning soliq amaliyotiga joriy etilishi iqtisodiy islohotlar sharoitida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mexanizmi va soliq siyosati samaradorligini oshirishga, soliq munosabatlarida mavjud muammolarni bartaraf etishga hamda soliq tizimini takomillashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari**

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2010 y. – 400 b.

1.3. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son.

1.4. O'zbekiston Respublikasining “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi” Qonuni, -T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 19-son, 210-modda.

1.5. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi Qonuni, -T.: Xalq so'zi, 2006 yil, 21 sentyabr.

1.6. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. - T.: Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 17 apreldagi «2013-2016 yillarda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1957 sonli qarori.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2099 sonli qarori.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1887 sonli qarori.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675 sonli qarori.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1449 sonli qarori.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1047-sonli qarori.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvardagi «2009 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1048-sonli qarori.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 29 yanvardagi «Uy-joy fondini foydalanishga tayyor xolda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha pudrat ishlarini kengaytirishni ragbatlantirishga doir ko'shimcha chora-tadbirlar to'grisida»gi PQ-1051 sonli qarori.

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi «2010 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-640 sonli qarori.

1.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3665-sonli Farmoni.

1.17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-sonli Farmoni.

## **II. Prezident asarlari**

2.1. Karimov I.A.. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – Toshkent, 2014. – 64 b.

2.2. Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. Халқ сўзи, 2013 йил 19 январь.

2.3. Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: “Ўзбекистон”, 2012. – 36 б.

2.4. Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш - мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир.–Т.: 19.Т. Ўзбекистон, 2011.

2.5. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза), “Халқ сўзи”, 2010 йил 12 ноябрь (№ 220).

2.6. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

2.7. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. 80 бет.

2.8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-Т.: «O'zbekiston», 2009 yil. 56 bet.

2.9. Каримов И.А. «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш- давр талаби» -Т.: Халқ сўзи, 14 февраль, 2009 йил.

2.10. Каримов И.А. “Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир” – Т.: “Халқ сўзи”, 2008 йил 9 февраль.

2.11. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007 йил. 39-40 бетлар.

2.12. Каримов И.А. “Янгилашни ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш – асосий вазифамиздир”. – “Халқ сўзи”, 2007 йил 13 феврал.

2.13. Каримов И.А. «Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор». –Т.: Халқ сўзи, 2006 йил 25 февраль.

2.14. Каримов И.А. «Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим». – Т.: Халқ сўзи, 2006 йил 11 февраль.

2.15. Каримов И.А. «Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир». – Т.: Халқ сўзи, 2005 йил 29 январь.

2.16. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. 358 б.

2.17. Каримов И.А. “Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.: Ўзбекистон, 1995 йил.

### **III. Соҳага оид меъёрий ҳужжатлар**

3.1. Солиққа оид қонун ҳужжатларидаги янгиликлар. 2014 йил. Тошкент: «NORMA». 2014.- 540 бет.

3.2. Солиққа оид қонун ҳужжатларидаги янгиликлар. 2013 йил. Тошкент: «NORMA». 2013.- 562 бет.

### **IV. Asosiy adabiyotlar**

4.1. Xudoyqulov S.K. Soliq tizimi. O`quv qo`llanma. T.: “ILM ZIYO”, 2012. – 340 б.

4.2. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – “Ўқитувчи” НМИУ, 282 б.

4.3. Т.С.Маликов, П.Т.Жалилов. Бюджет-солиқ сиёсати, - Т.: “Академнашр” 2011 й. 154 б.

4.4.Ваҳобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик-Т.:Шарқ, 2009. 448 бет.

4.5. Alimardonov M.I., To`xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.

4.6. Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти, Дарслик (қайта ишланган)- Т.: Фан ва технологиялар маркази, 2003.-247 бет.

4.7. Налоги и налоогообложение: учеб. /Под ред. И.А. Майбутова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 559 с.

4.8. Никулкина И.В. Общая теория налоогообложения: учеб. пособ. – М.: Эксмо, 2010. – 176 с.

4.9. Миляков Н.В. Налоги и налоогообложение: Учебник. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. - 520 с.

4.10. Тухлиев Б.К., Юсупов О.А., Агзамов А.Т, Тўхсанов Қ.Н. Солиқлар ва солиққа тортиш: Ўқув қўлланма. – Т.: 2007. -320 б.

## **V. Qo`shimcha adabiyotlar**

5.1. G.Qosimova, Z. Karimova. Byudjetdan tashqari fondlar. T. “Iqtisod-moliya”. 2009 y. 212 b.

5.2. А.Воҳобов, З.Срожиддинова, Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Иқтисод-молия”, 2002 йил.

5.3. Митюкова Э.С. Налоговое планирование: анализ реальных схем. – М.: Эксмо, 2011. – 308 с.

5.4. Молчанов С.С. Налоги: расчет и оптимизация. – М.: Эксмо, 2010.– 544с.

5.5. Налоги и налоогообложение: Учебник. / Под. ред. И.А. Майбутова. 2-е изд., перер и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.-511с.

5.6. Паскачев А. Б. Налоги и налоогообложение : учеб. пособие. — М.: Высшее образование, 2008. — 384 с.

5.7. A.S.Begmatov, M.V.Xamidulin, M.Sh.Bo`taboev. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T: «Akademiya» nashriyoti, 2007 y., 224 b

5.8. О.А Красноперова Комментарий к главе 25 Налогового кодекса РФ. «Налог на прибил организаций» изд. «Проспект» Москва 2002, стр 4-5.

5.9. Налоговое право/ Под ред. А.А.Тедеев Налоговое право Москва «Эксмо» 2004 стр 620.

5.10.Маликов Т. Солиққа тортишнинг долзарб масалалари. Тошкент. 2000 йил. 276-бет.

5.11.Рикардо Д. Сочинения т. I. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. - М.: «Госполитиздат», с.360.

5.12.Пепеляев С.Г. Основы налогового права. М.: 1995, с 289.

5.13.Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т.: “Меҳнат”, 1995 й. 377-бет.

5.14.Темур тузуклари. Тошкент. 1993 йил. 98 бет.

## **VI. Davriy nashrlar, statistik hisobotlar va to'plamlar**

6.1. “Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида бюджет-солиқ сиёсатини такомиллаштиришнинг долзарб вазифалари” мавзусида Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Солиқ академияси, Тошкент – 2012 йил, 128 бет.

6.2. Мамлакатимизни янгилаш ва модернизация қилиш шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда солиқ тизимининг ролини ошириш масалалари.- Т.:ТДИУ, 2011 йил 16 март.

6.3.Tashmurodova В.Е. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliqlardan samarali foydalanish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –Т. ВМА, 2007- 31 б.

6.4. В. Ю. Галкин. «Некоторые вопросы теории налогов». Журнал «Финансы» № 1, 1993 г. стр.35.

6.5. Олимжонов. О. Бозор иқтисодиётига ўтиш даврида солиқ сиёсати. «Ҳаёт ва иқтисод», 1992. 5-сон.

6.6. Черник Д.Г. «Налоги в рыночной экономике», «Финансы», М.: 1992, - №3. с.19 с.21.

6.7. Болдырев. «Финансы капитализма», «Финансы», М.:1987. с.21.

6.8. “Халқ сўзи” газетаси.

6.9. «Солиқлар ва божхона хабарлари» газетаси.

6.10. Солиқ тўловчининг журнали.

6.11. Ўзбекистон Республикаси солиқ органлари фаолиятининг 2013 йилги натижалари. - Т.: ДСҚ, 2014.

6.12. Gijduvon tumani Davlat soliq inspeksiyasining 2013-2014 yillari hisobot ma'lumotlari.

## **VII. Internet saytlari**

7.1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.

7.2. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

7.3. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.

7.4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

7.5. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar markazi sayti.